

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

DADABOYEV OLIMJON ORTIQOVICH

**SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINI
YARATISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Filologiya fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philological Sciences

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich

Sharq va G‘arb adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratish tamoyillari..... ..3

Дадабоев Олимжон Ортикович

Принципы создания образов исторических личностей в восточной и западной литературе 27

Dadaboev Olimjon Ortiqovich

Principles of creating images of historical figures in Eastern and Western literature
..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH HUZURIDAGI
BIR MARTALIK DSc ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

DADABOYEV OLIMJON ORTIQOVICH

**SHARQ VA G‘ARB ADABIYOTIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZINI
YARATISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1. DSc/Fil940 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rahmonov Nasimxon Askarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'xliyev Boqijon
filologiya fanlari doktori, professor

Turdimov Shomirza Ganiyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Pier Jorjio Borbona
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100 a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100 a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.M.Hoshimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida keyingi yillarda tarixga, ko'ha merosga, qadimiy qadriyatlarga va millatning tarixiy qahramonlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Kishilik jamiyatida odamlarning o'z tarixiy ildizlarini tushunishga, o'z xalqining jahon hamjamiyatidagi o'rnini bilishga bo'lgan tabiiy istagi asosan tarixiy asarlar bilan qondiriladi. Qolaversa, xalq tarixi va millat qahramonlari mavzusidagi adabiy meros namunalarining milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik kabi insoniyat ma'naviy olamini o'stirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Turli mamlakatlar adabiyotidagi ayrim tarixiy shaxslar obrazining asrlar davomida jahon xalqlari adabiyotida keng yoyilgani adabiyotlararo aloqalar bilan bog'liq tadqiqotlar masalasini kun tartibiga qo'yimoqda. Turli xalqlar adabiyotida aks etgan tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish tamoyillarini tipologik hodisa sifatida o'rganish bu masalaning qiyosiy adabiyotshunoslikda naqadar muhimligini ko'rsatadi va muammoning o'rganilish zaruratini belgilab beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy obrazlarning badiiy adabiyotdagi talqini masalasida ko'plab tadqiqotlar olib borilayotgani alohida ahamiyatga molikdir. O'zbek adabiyotshunosligida ham bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, G'arb va Sharq adabiyotida tarixiy shaxslar siymosining turli ko'rinishdagi talqinlari mavjud. Shunday ekan, bunday obrazlarning realistik talqini yoki uni yaratishda epik an'ana va tarixiylik tamoyillariga asoslanish kabi masalalar tadqiqi sohaning ustuvor yo'nalishini belgilab beradi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda kechayotgan ma'naviy tiklanish jarayonida turli tarixiy shaxslar haqidagi badiiy ijod namunalarini aniqlash hamda adabiy, qiyosiy-tarixiy jihatdan chuqur tadqiq etish ehtiyoji yuzaga keldi. Bunday asarlarda aks etgan g'oyalar yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ezgu an'analar ruhida tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, «yoshlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash»¹da tarixiy shaxslar haqida yaratilgan tarixiy asarlarning tutgan o'rni juda katta. Buyuk insonlar shaxsiyati va ularning jahon adabiyotidagi talqini va tutgan o'rnini tadqiq etish zaruriyati shu bilan izohlanadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish to'g'risida»gi PQ-3271-son hamda 2021-yil 19-maydagi «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-5117-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 610-son, 2018-yil 18-maydagi «Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.18

nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 376-son qarorlari va qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining «1. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Jahon adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlarning janr xususiyatlari va poetikasi masalasini o'rganish bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy jihatdan olib borilayotgan tadqiqotlarda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritilgan. Jumladan: ingliz tarixiy romani genezisi va tariqqiyoti, tarixiy romanda badiiy to'qima va tarixiy haqiqat (Cambridge University, Great Britain), tarixiy romanda syurrealizm, tarixiy haqiqat tasviri, tarixiy romanda dual-dunyoviy (dual-temporal) haqiqat (Minnesota universiteti, AQSH), postmodernizm poetikasi, postmodernizmga tarixiylik, metaproza, intertekstuallikning aks etishi (Toronto universiteti, Kanada), tarixiy romanda fakt va to'qima muammosi (Sofiya universiteti, Bolgariya), tarixiy romanda sub'yektivlik va intertekstuallik (Lidz universiteti, Angliya), tarixiy romanda pastish va parodiya (Belgrad universiteti, Serbiya), biografik romanning biofiksiya, tarixiy metaproza, biografik metaproza ko'rinishlari (London Qirollik kolleji, Angliya), rus adabiyotida tarixiy romanlar poetikasi (Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), post-kolonial tarixiy romanlarda adaptatsiya hodisasi (Iordaniya universiteti, Iordaniya), tarixiy asarlarda istorizm muammosi, tarixiy roman genezisi, tarixiy romanlarda xarakter ruhiyati (O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston), o'zbek adabiyotida biografik roman janri xususiyatlari (o'zbekiston milliy universiteti, O'zbekiston) kabi muammolar qator filologlarning izlanishlarida o'z uchimlarini topdi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon xalqlari adabiyotini qiyosiy o'rganish masalasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Adabiyotshunos olimlardan N.I.Konrad³, I.G.Neupokoyeva⁴, V.M.Jirmunskiy⁵ va D.Dyurishinlarning⁶ tadqiqotlarida adabiy voqea-hodisalarning o'xshashligi, bir

²Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи www.wisconsinuniversity.edu; www.indiana.edu; www.humboldt.edu; www.michigan.uni.edu; <https://asiecentrale.revues.org/2919>; <http://www.dissertation.com>; www.britanica.com; www.cambridge.org; www.amazon.com; www.twipx.com; www.london.ac.uk; www.ox.ac.uk; www.agency-nationallresearch.fr; www.harvard.edu; www.uni-bonn.de ва бошқа манбалар асосида тайёрланди.

³ Конрад Н.И. Запад и Восток. Статьи. – М.: Наука, 1972. – 520 с.

⁴ Неупокоева И.Г. История всемирной литературы. Проблемы системного и сравнительного анализа. – М.: Наука, 1976. – 357 с.

⁵ Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – 496 с.

⁶ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – 318 с.

tomondan, turli xalqlarning badiiy tafakkuri hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishidagi o'xshashlikka, ikkinchi tomondan esa, ular o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarga asoslanishi ko'rsatib berilgan.

O'zbek adabiyotshunoslari F.Sulaymonova⁷, M.Jo'rayev, Sh.Shomusarovlar⁸ va boshqalarning⁹ qiyosiy adabiyotshunoslik fanini rivojlantirishga qo'shgan hissalarini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Tarixiy asarlar o'zining tarbiyaviy, kognitiv va estetik roli bilan zamonaviy adabiyot va madaniyatda muhim o'rin tutadi. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida badiiy san'atning ushbu turiga oid olib borilgan ko'plab tadqiqotlar buning dalilidir.¹⁰

Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyotda tarixiy shaxslar obrazi talqini masalasi yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. E.Bartels, M.Barnet, S.Grinblat, L.Xopkinz, T.Pirs, S.Sheferd, U.Zunder, R.Uilson, R.Seyls, Ch.Nikol, P.Koxer, T.Xeyli kabi adabiyotshunoslarning¹¹ ishlarida ingliz dramalaridagi tarixiy shaxs obrazi haqidagi qarashlari o'z aksini topgan.

O'zbek adabiyotshunosligida ham tarixiy siymolarning badiiy talqinlari bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarda, asosan, Amir Temur, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Berinuy, Navoiy kabi davlat arboblari va buyuk allomalarning badiiy obrazlari poetikasi tadqiq etilgan. Jumladan, M.Hamroyevaning dissertatsiyasida Amir Temur siymosi orqali tarixiy shaxs xarakterini badiiy nasrda aks ettirish muammolari tadqiq etilgan. Bu ishida tadqiqotchi ingliz yozuvchisi Xilda Hukhemning «Yeti iqlim sultoni» romaniga ham murojaat etgan va ingliz adabiyotida Amir Temur obrazining qanchalik

⁷ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 416 б.

⁸ Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т., 2001.

⁹ Особые межлитературные общности – 5. – Т.: Фан, 1993.

¹⁰ Смирнов Б. Проблема историзма в литературе XX века. – Л.: Знание, 1974; Келдыш В. Русский реализм начала XX века. – М.: 1975; Мирвалиев С. Тарихийлик ва замонавийлик. – Т.1979; Мирвалиев С. Роман и время. – Т.: Фан, 1983; Кошчанов М. Мастерство изображения характеров в романах Айбека. – Т.: 1959; Саттаров М., Каттабеков А. Сияние далеких звезд. – Т.: Укитувчи, 1984; Султанов И. Из истории узбекской прозы. – Т.: 1982; Алимов П. Проблема характера в современном узбекском историческом романе. АКД. – Т.:1990; Варфоломеев И. Типологические основы жанров исторической романистики: (Классиф. вида). – Ташкент: Фан, 1979. – 166 с.; Каттабеков А. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной прозе: Дисс. ... док.филол. наук. – Ташкент, 1985. – 398 с.; Самандаров И. Историзм узбекских исторических романов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 24 с.; Носиров А. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадий талқини («Юлдузли тунлар» романи мисолида): Филол.фан.ном....дисс.автореф. – Тошкент, 2003. – 24 б.; Муродов Ф. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – 170 б.; Хажиева Ф. Биографик роман жанри хусусиятлари (И.Стоун, М.Қориев ва Н.Норматов асарлари қисмида) Филол.фан.бўйича фалсафа доктори...дисс. – Тошкент, 2018. 153 – б.; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари:Филол. фан. ном. дис. автореф. –Т., 2001. – 24 б. Bartels, Emily C. *Spectacles of Strangeness: Imperialism, Alienation and Marlowe*. – Philadelphia: U of Pennsylvania P, 1993. – 324 p; Burnett, Mark Thornton. *Tamburlaine: An Elizabethan Vagabond // Studies in Philology, 1987. №94. – P. 34-47*; Greenblatt, Stephen. *Marlowe and the Will to Absolute Play*. – Chicago: U of Chicago P, 1980. – 268 p; Hopkins, Lisa. *Dead shepherd, now I find thy saw of might: «Tamburlaine» and the uses of Pastoral // Research Opportunities in Renaissance Drama. 1996. №35. – P.1-16*; Pearce, T.M. *Tamburlaine's «Discipline to his Three Sonnets»: An Interpretation of «Tamburlaine», Part II // Modern Language Quarterly. 1954. №15. – P.18-27*; Shepherd, Simon. *Marlowe and the Politics of Elizabethan Theatre*. – Brighton: 1986. – 187 p; Zunder, William. *Elizabethan Marlowe*. – Hull:Unity P, 1994. – 146 p; Wilson, Richard. *Visible Bullets: Tamburlaine the Great and Ivan the Terrible // English Literary History. 1995. №62. – P.34-47*; Sales, Roger. *Christopher Marlowe*. – Basingstoke: 1991. – 241 p; Nicholl, Charles. *The Reckoning: The Murder of Christopher Marlowe*. – London: Jonathan Cape, 1992. – 126 p; Kocher, Paul H. *Marlowe's Art of War // Studies in Philology. 1942. № 39. – P. 24-37*; Healy, Thomas. *Christopher Marlowe*. – Plymouth: Northcote House, 1994. – 251 p.

haqqoniy yoritilganini dalillash uchun qiyosiy obyekt sifatida mazkur asarga murojaat etgan¹². D.Rasulmuhammedovanning ilmiy tadqiqoti esa istiqlool davri o'zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolariga bag'ishlangan¹³. G.Yusupova esa milliy istiqlool davrida yaratilgan o'zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazini mufassal tahlildan o'tkazgan¹⁴.

Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixiy shaxslar obrazining shakllanishida G'arb va Sharq adabiyotining o'zaro ta'siri masalalari, har ikki qit'a adabiyotining mazkur masaladagi tamoyillari hali qiyosiy aspektda tizimli ravishda o'rganilmagan. Biz adabiyotshunoslikdagi ana shu bo'shliqni to'ldirishga imkon qadar urindik.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat chet tillari institutining «Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari hamda chet til ta'limi muammolari» mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz xalqlari adabiyoti tarixiy badiiy asarlaridagi tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish tamoyillarini qiyosiy planda yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

G'arb va Sharq mamlakatlari adabiyotida tarixiy shaxslar haqida yaratilgan badiiy asarlarni qiyosiy tahlil etish orqali adiblarning badiiy tasvirlash prinsiplari, har ikkala qit'a tarixiy asarlaridagi o'xshash va farqli jihatlar, ularni keltirib chiqargan omillarni aniqlash;

ingliz adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlarning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlarini tahlil etish;

o'zbek va ingliz adabiyotida tarixiy shaxslar haqida yaratilgan nasriy asarlarda tarixiy obrazlarning tarixiy haqiqatga qanchalik mosligi, mazkur obrazlarni yaratishda xalq og'zaki ijodining va tarixiy manbalarning ta'sirini aniqlash;

o'zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi asarlarning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlarini tahlil etish;

o'zbek va ingliz adabiyotida tarixiy shaxslar haqida yaratilgan nasriy asarlarning g'oyaviy va badiiy talqini hamda tarixiy obrazlarni yaratishda o'zbek va ingliz adabiyotidagi badiiy tamoyillarni ochib berish;

hujjatli romanlardagi tarixiy shaxslar siymosi talqinida tarixiy manbalarning o'rni va muallif maqsadining ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz adabiyotida tarixiy mavzudagi romanlar, hujjatli romanlar va dramalarda yaratilgan tarixiy obrazlar tanlab olindi.

¹² Хамраева М.А. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (насрий асарларда Амир Темур образи):Филол. фан. ном. дис. автореф. –Т., 2010. – 22 б.

¹³ Расулмухаммедова Д.Т. Истиқлол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан.ном. дис. автореф. – Т., 2000. – 21 б.

¹⁴ Юсупова Г.А. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадий талқини. Филол. фан. ном. дис.автореф. – Т., 2005. – 26 б.

Tadqiqotning predmetini o'zbek va ingliz adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratish tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda kompleks tahlil, kontekstual tahlilning tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy metodlaridan, shuningdek, komparativistik, biografik, ijtimoiy, germeneytik metod turlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz adabiyotida o'rta asrlarda yozilgan tarixiy tragediyalarda tarixiy qahramon obrazini yaratishda tarixiylik bilan birgalikda epik an'analarning sinkretikligi kuzatilishi, biroq bu adabiy an'ananing uzoq vaqt cho'zilmagani, o'zbek adabiyotida esa bu kabi jarayonda tarixiylik va epiklikning qorishuvi o'rta asrlardan to XIX asr oxirigacha kuzatilishi aniqlangan;

ingliz adabiyotida tarixiy mavzu va tarixiy obrazlarning shakllanishida adabiy oqimlarning roli katta ekani, Uyg'onish davri tarixiy dramalarida tarixiy qahramon obrazi asosiy o'rin egallasa, romantizm davridagi tarixiy romanlarda tarixiy qahramon obrazlari ikkinchi planga o'tgani, zamonaviy modern va postmodern adabiyotda esa asosiy e'tibor tarixiy qahramonlarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari va ong oqimida parchalangan taassurotlariga qaratilgani, tarixiy qahramonlar xarakterini to'g'ridan-to'g'ri qayta yaratishdan ko'ra, shaxsning ma'naviy-ruhiy tajribasini tadqiq etishga intilgani dalillangan;

o'zbek adabiyotida tarixiy qahramon tasviri tahayyulida mafkuraviy, milliy va mintaqaviy xususiyatlar katta ahamiyatga ega ekani, xususan, milliy uyg'onish davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy qahramon obrazi tasvirida ingliz va rus tarixiy romanchiligining, sobiq Sho'ro davrida yaratilgan asarlardagi tarixiy obrazlar tasvirida socialistik realizm an'alarining, mustaqillik davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy obrazlar tasvirida esa o'ziga xos yangicha adabiy an'analarning kuzatilishi asoslandi;

o'zbek adabiyotida tarixiy romanchilik janri taraqqiyotining ilgari bosqichlari bilan mustaqillik davri romanlarida tarixiy qahramon obrazi tasviridagi an'ana va novatorlik, poetik tasvir yo'sinlari jihatidan o'zaro qiyoslanib, tarixiy siymo obrazini yaratish konsepsiyasi ifodasidagi yangilanishlar aniqlangan;

o'zbek va ingliz hujjatli nasriga oid janrlarda yaratilgan asarlarda tarixiy qahramonlar obrazini yaratishda tarixiy faktlar va manbalarga asoslanilishi kuzatilsa-da, yozuvchilarning asar yaratishdagi maqsadlari obraz yaratish jarayoniga katta ta'sir etishi, xususan, g'arb adiblari sharqlik tarixiy siymolar obrazini yaratishda yevroposentrizm nuqtai nazaridan yondoshishlari ustunlik qilishi dalillandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o'zbek va ingliz adabiyotida o'rta asrlarda yozilgan tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiy qahramon obrazini yaratishda tarixiylik bilan birgalikda epik an'analarning qorishiq holda ishlatilgani, shuning uchun bunday tarixiy qahramonlar epik qahramonlar kabi tasvirlangani ochib berilgan;

Uyg'onish davri ingliz tarixiy dramalarida tarixiy qahramon obrazi asosiy o'rin egallashi, romantizm davridagi tarixiy romanlarda tarixiy qahramon obrazlari ikkinchi planga o'tgani, zamonaviy modern va postmodern adabiyotda esa asosiy e'tibor tarixiy qahramonlarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari

va ong oqimida parchalangan taassurotlariga qaratilgani, tarixiy qahramonlar xarakterini to'g'ridan-to'g'ri qayta yaratishdan ko'ra, shaxsning ma'naviy-ruhiy tajribasini tadqiq etishga intilgani dalillangan;

o'zbek adabiyotida tarixiy qahramon tasvirida mafkuraviy, milliy va mintaqaviy xususiyatlar katta ahamiyatga ega ekani, xususan, milliy uyg'onish davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy qahramon obrazi tasvirida ingliz va rus tarixiy romanchiligining, sobiq Sho'ro davrida yaratilgan asarlardagi tarixiy obrazlar tasvirida socialistik realizm an'analarning, mustaqillik davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy obrazlar tasvirida esa o'ziga xos yangicha adabiy an'analarning kuzatilishi yoritib berilgan;

o'zbek va ingliz hujjatli nasriga oid janrlarda yaratilgan asarlarda tarixiy qahramonlar obrazini yaratishda tarixiy faktlar va manbalarga asoslanilishi kuzatilsa-da, yozuvchilarning asar yaratishdagi maqsadlari obraz yaratish jarayoniga katta ta'sir etishi, xususan, g'arb adiblari sharqlik tarixiy siymalar obrazini yaratishda yevroposentrizm nuqtai nazaridan yondoshishlari ustunlik qilishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yurtimiz hamda xorijdagi adabiyotshunos va munaqqidlarning fikrlariga murojaat qilingani, istiqlol davri o'zbek romanlari poetik ifoda yo'sinida Sharq va G'arb romanchiligi an'analari sintezlashayotgani kompleks tahlil, kontekstual tahlilning sosiologik, tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik yondashuvlari, shuningdek, biografik, psixologik, germeneytik, gipotetik metodlar va immanent tahlilning struktural, stilistik metod turlari asosida olib borilgani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani tegishli tashkilotlardan olingan tasdiqlar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning asosiy ilmiy xulosalari va muhim nazariy umumlashmalaridan adabiyot nazariyasi, o'zbek va jahon romanchiligi tarixi hamda nazariyasi, xususi, tarixiy va nazariy poetika, janr tipologiyasi va poetik mahoratni o'rganishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqotning nazariy xulosalari zamonaviy adabiy oqim va yo'nalishlarga xos belgi-sifatlarni ijodiy qayta o'zlashtirish, makon va zamon, janr modifikatsiyasi, badiiylik moduslari, adabiy montaj usuli, assosiativ tasvir, epik bayon yo'sinlari, kompozision yaxlitlik kabi masalalarga kompleks yondashuvga asoslangan tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta'lim tizimida o'qitilayotgan adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon va adabiyot nazariyasi fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'qitishda, o'zbek va ingliz tarixiy romanlari poetikasi, janr badiiyati, ijodkorlar poetik mahoratiga oid maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sharq va G'arb adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratish tamoyillari bo'yicha olingan natijalar asosida:

ingliz adabiyotida tarixiy mavzu va tarixiy obrazlarning shakllanishida adabiy oqimlarning roli katta ekani, Uyg'onish davri tarixiy dramalarida tarixiy qahramon obrazi asosiy o'rin egallasa, romantizm davridagi tarixiy romanlarda tarixiy

qahramon obrazlari ikkinchi planga o'tgani, zamonaviy modern va postmodern adabiyotda esa asosiy e'tibor tarixiy qahramonlarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari va ong oqimida parchalangan taassurotlariga qaratilgani, tarixiy qahramonlar xarakterini to'g'ridan-to'g'ri qayta yaratishdan ko'ra, shaxsning ma'naviy-ruhiy tajribasini tadqiq etishga intilgani haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradio kanali DUK muharririyati tomonidan tayyorlangan "Katta tanaffus", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli radioeshittirishlarining 2024-yil fevral va may sonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 3-sentabrdagi 05-06-1387-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot obyekti qilib olingan manbalarning qiyosiy tahlilidan olingan xulosalar radioeshittirishlarning ilmiy dalillarga boy va ommabop, ishonchli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan;

o'zbek va ingliz hujjatli nasriga oid janrlarda yaratilgan asarlarda tarixiy qahramonlar obrazini yaratishda tarixiy faktlar va manbalarga asoslanilishi kuzatilsa-da, yozuvchilarning asar yaratishdagi maqsadlari obraz yaratish jarayoniga katta ta'sir etishi, xususan, g'arb adiblari sharqlik tarixiy siymolar obrazini yaratishda yevroposentrizm nuqtai nazaridan yondoshishlari ustunlik qilishi, ingliz adabiyotida o'rta asrlarda yozilgan tarixiy tragediyalarda tarixiy qahramon obrazini yaratishda tarixiylik bilan birgalikda epik an'analarning sinkretikligi kuzatilishi, biroq bu adabiy an'ananing uzoq vaqt cho'zilmagani, o'zbek adabiyotida esa bu kabi jarayonda tarixiylik va epiklikning qorishuvi o'rta asrlardan to XIX asr oxirigacha kuzatilishi haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023-2025-yillarda bajarilgan IL-27-4722022413-sonli "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 5-sentabrdagi № 04-04-1/4986-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek adabiyotidagi tarixiy obrazlar yaratish tamoyillaridagi farqli jihatlar haqidagi ma'lumotlar loyihani boyitishga xizmat qilgan;

o'zbek adabiyotida tarixiy qahramon tasviri tahayyulida mafkuraviy, milliy va mintaqaviy xususiyatlar katta ahamiyatga ega ekani, xususan, milliy uyg'onish davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy qahramon obrazi tasvirida ingliz va rus tarixiy romanchiligining, sobiq Sho'ro davrida yaratilgan asarlardagi tarixiy obrazlar tasvirida socialistik realizm an'analarning, mustaqillik davri tarixiy romanlarida yaratilgan tarixiy obrazlar tasvirida esa o'ziga xos yangicha adabiy an'analarning kuzatilishi haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258, "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-iyul № 01/4-3003-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy qahramon obrazlari evolyutsiyasiga doir ma'lumotlar loyihaning samaradorligi oshirgan;

o'zbek adabiyotida tarixiy romanchilik janri taraqqiyotining ilgari bosqichlari bilan mustaqillik davri romanlarida tarixiy qahramon obrazi tasviridagi an'ana va novatorlik, poetik tasvir yo'sinlari jihatidan o'zaro qiyoslanib, tarixiy siymo obrazini yaratish konsepsiyasi ifodasidagi yangilanishlar haqidagi ilmiy natijalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" bo'yicha innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyul № 01/4-3022-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlarga doir ma'lumotlar loyihaning samaradorligi oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 11 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 250 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tarixiy mavzudagi asarlarda obrazlar tizimining o'ziga xosligi**" deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat bo'lib, adabiy asarlarda tarixiy qahramon obrazi poetikasi, tarixiy asarlarda obraz va xarakter tasviri muammolari, jahon adabiyotida tarixiy qahramon obrazi evolyusiyasi tadrijiy bosqichlari kabi umumiy va nazariy masalalarga bag'ishlangan.

Tarixiy qahramon obrazi badiiy adabiyotda, ayniqsa tarixiy roman va tarixiy drama janrlarida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat badiiy qahramon sifatida, balki madaniy-tarixiy xotiraning tashuvchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Tarixiy qahramon ma'lum bir shaxsning biografik ma'lumotlarini oddiy qayta tasvirlash bilan chegaralanmaydi; aksincha, u murakkab badiiy umumlashtirish jarayonining mahsuli bo'lib, unda individual va tipik jihatlar yagona poetik tuzilmada qo'shilib ketadi.

Ma'lumki, tarixiy obrazlar prototip asosida yaratiladi. Bu usulda badiiy obraz yaratishning xarakterli jihati shundaki, bunda hayotda mavjud bo'lgan tarixiy shaxs badiiy obrazning asosida turadi. Yozuvchi hayotdagi favqulodda shaxslar – prototiplarga tayanib badiiy obraz yaratadi. Prototipli obraz yaratish jarayonida ham, xuddi jamlash yo'li bilan obraz yaratilayotganidagidek, hayot xodisalari tipiklashtirilib ko'rsatiladi, badiiy to'qimadan ma'lum me'yorda foydalaniladi. Ta'kidlash kerakki, badiiy obraz hayotiy material, yozuvchining ijodiy fantaziyasi va olg'a suriladigan g'oyaning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Prototip bilan obraz orasida yozuvchining o'zi turadi. Agar badiiy obrazni jonli organizm deb faraz qiladigan bo'lsak, prototip shu organizmning skeleti, badiiy to'qima uning eti, estetik ideal esa jonidir. Tirik organizmning etini skeletidan, skeletini jonidan ajratib bo'lmaganidek, badiiy obraz "organizmi"dagi prototipni badiiy to'qimadan, badiiy to'qimani estetik idealdan uzib olib bo'lmaydi. Ular birlariga payvandlashib, qo'shib-chatishib ketgan. Oybekning "Navoiy" romanidagi Alisher Navoiy, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidagi Ulug'bek, "Ko'hna dunyo" romanidagi Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud G'aznaviy, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlaridagi Bobur, Xumoyun, Akbarshoh, B.Boyqobilovning "Navoiynoma" she'riy romanidagi Alisher Navoiy, Xusayn Boyqaro kabi bir qator obrazlar mana shu usulda yaratilgan.¹⁵

Bunday obrazni yaratishda muallif tarixiy shaxsning betakror individuelligini ochish bilangina cheklanib qolmay, balki ma'lum bir davrning, ijtimoiy guruhning yoki milliy xarakterning umumlashtirilgan jihatlarini ham ifodalashga intiladi. Shunday badiiy transformatsiya qahramonni ikki xil qabul qilish imkonini beradi: bir tomondan u o'z ichki dunyosi va biografik taqdiriga ega noyob shaxs, ikkinchi tomondan esa tarixiy davrning umumiy tendensiyalarini mujassam etuvchi ramzdir. Shu ma'noda, tarixiy qahramon o'ziga xos tarzda o'tmish va hozirgi zamon, shaxsiy biografiya va jamoaviy taqdir o'rtasidagi vositachiga aylanadi¹⁶.

Adabiyotdagi tarixiy qahramon real shaxs asosida yaratilgan, biroq poetika qonunlari va muallifning tarix haqidagi konsyepsiyasiga muvofiq qayta ishlangan badiiy qurilma hisoblanadi. Uning qimmatini shundaki, u ijtimoiy-tarixiy va madaniy ma'nolarning ifodachisiga aylanadi. Ana shu qahramon orqali adabiyot nafaqat tarixiy faktlarni qayd etish, balki ularni talqin qilish vazifasini ham bajaradi, bu esa o'quvchiga o'tmishni estetik va falsafiy mushohada prizmasi orqali ko'rish imkonini beradi.

B. Pasternak ta'kidlaganidek, tarixiy qahramon bevosita tarixiy voqelikni emas, balki tarixning fojealari, ziddiyatlari va ideallarini muallif qanday anglaganini aks ettiradi. Shu ma'noda, tarixiy qahramon obrazi tarixiy diskursning ajralmas qismi bo'lib, shu bilan birga mustaqil badiiy qiymatga ham ega bo'ladi¹⁷.

¹⁵ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.56.

¹⁶ Лотман Ю. М. Структура художественного текста. — Таллин: Валгус, 1980; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. — М.: Искусство, 1979.

¹⁷ Пастернак Б. Л. Введение в литературное творчество. — М.: Художественная литература, 1963.

Tarixiy qahramon obrazini yaratishning asosiy prinsipi badiiy umumlashtirishdir. Uning mohiyati shundaki, yozuvchi real biografik faktlarga tayangan holda muayyan davr yoki ijtimoiy-madaniy muhit uchun xos deb tan olinadigan xarakter xususiyatlari, xatti-harakatlar va voqealarni ajratib ko'rsatadi¹⁸. Shu tariqa individual shaxs badiiy tipga aylantiriladi va u nafaqat shaxsiy belgilarni, balki tarixiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini ham ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Badiiy umumlashtirish qahramonni tarix va adabiyotning "kesishish nuqtasi"ga aylantiradi. Bir tomondan, u tarixiy ishonchlilikni saqlaydi, ikkinchi tomondan esa muallifga davrning ichki qonuniyatlarini ochib berish, milliy-madaniy o'ziga xoslikni ta'kidlash va tarixiy jarayon haqidagi o'z qarashlarini ifodalash imkonini beradi.

Badiiy adabiyotda umumlashtirishning ikki vazifani bajarishi ko'zda tutiladi:

1. Individuallashtirish – tarixiy shaxsning betakror xususiyatlarini saqlash, unda tirik insonni ko'rish imkonini berish;

2. Tipiklashtirish – individual ko'rinishda davr, ijtimoiy guruh yoki xalq uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash.

Adabiyotda tarixiy qahramon obrazini individuallashtirish tarixiy shaxs yoki qahramonning umumlashma emas, balki yagona, o'ziga xos shaxs sifatida tasvirlanishidir.

Yozuvchi qahramonni faqat tarixiy faktlar asosida emas, balki uning shaxsiy xarakteri, psixologiyasi, ichki dunyosi va odatlariga urg'u berib tasvirlaydi. Masalan, shoh yoki sarkarda tarixiy manbalarda ko'proq siyosiy faoliyati bilan tilga olinadi, ammo badiiy asarda uning shaxsiy his-tuyg'ulari, qaror qabul qilishdagi ichki kurashlari ochib beriladi.

Uilyam Shekspir tarixiy qirollarni (masalan, Richard III, Genrix IV) faqat siyosiy arbob sifatida emas, balki kuchli ehtirolari, ichki ziddiyatlari va psixologik murakkabligi bilan tasvirlaydi. Kristofer Marlo asarlarida tarixiy qahramonlar ulkan ehtirolar egasi sifatida tasvirlanadi. Masalan, "Buyuk Tamerlan" dramasida tarixiy Amir Temur obrazini yaratar ekan, Marlo uni shunchaki buyuk sarkarda emas, balki shaxsiy ambitsiya, cheksiz hokimiyat istagiga berilgan inson sifatida ko'rsatadi.

Tipiklashtirish eng muhim badiiy usullardan biridir. U qahramonni o'quvchi ko'z o'ngida tanish qiladi va shu bilan birga unga umuminsoniy ohang beradi. Bir tomondan, o'quvchi o'ziga xos psixologik jihatlari va biografik tafsilotlari bilan muayyan hukmdor, sarkarda yoki mutafakkirni ko'radi; boshqa tomondan esa uni ma'lum bir kengroq toifaning vakili sifatida qabul qiladi.

Ba'zan tarixiy shaxs shunchaki tarixiy shaxs emas, balki "xalq iroda va orzularining timsoli" sifatida talqin qilinadi. Shekspirning "Xenri V" asarida tarixiy shaxs Xenri V tipiklashtirilgan. U nafaqat bir shaxs, balki ingliz xalqining siyosiy birdamlik va vatanparvarlik ruhini mujassamlashtiradi.

¹⁸ Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. — М.: Искусство, 1979.

Marloning “Buyuk Tamerlan” dramasida tarixiy Amir Temur obrazi tipiklashtirilgan: u shaxsiy ambitsiya bilan birga, butun bir davrning “jahongirlik ruhi”ni ifodalaydi.

O‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”dagi xon obrazi orqali real tarixiy shaxsni tasvirlagan, biroq adib tarixiy tiplar orqali o‘z davridagi feodal muhitning tipik qiyofasini ko‘rsatadi.

Tarixiy asar obrazlari ko‘pincha muallif falsafasining “tashuvchilari” sifatida faoliyat yuritadi. Ular orqali yozuvchi tarixni nafaqat qayta hikoya qiladi, balki unga o‘zining falsafiy-estetik qarashlarini singdiradi. Shu bois tarixiy roman qahramonlari ko‘p qatlamli semantik tizimga ega bo‘lib, asar polifonik tuzilish kasb etadi: unda qahramon haqiqatlari va muallif qarashlari bir vaqtning o‘zida mustaqil, ammo uyg‘un tovushlarda yangraydi.

Mazkur nuqtai nazardan, M. M. Baxtinning qahramonning taqdiri va mavqeiga nisbatan nomuvofiqligi haqidagi g‘oyasi ayniqsa dolzarbdir.¹⁹ Baxtin nazarida qahramon ikki ekstremal shaklda namoyon bo‘lishi mumkin:

1. “O‘z taqdiridan kattaroq” qahramon – bu shaxs tarixiy belgilanganlik chegaralaridan chiqib ketadi, ya’ni o‘z zamonidan ilgarilab, universal ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asaridagi Temur obrazi, Tolstoyning “Pyotr I” romanidagi Pyotr obrazlarini ana shunday obrazlar sifatida sanash mumkin.

Bu o‘z davri va tarixiy davr chegarasidan oshib ketgan, g‘oyasi va harakati butun insoniyat uchun dolzarb va ahamiyatli bo‘lib, kelajak avlodlar uchun ibrat bo‘ladigan shaxsdir. U o‘z davrining qat’iy qonunlariga bo‘ysunmaydi, balki tarixning borishiga faol ta’sir qiladi va shunchaki uning mahsuli emas. Uning g‘oyalari, harakatlari yoki qarashlari o‘z davri uchun yutuq bo‘lib, kelajakdagi tendensiyalarni taxmin qiladi va yangi standartlarni belgilaydi. Uning ta’siri milliy, vaqtinchalik yoki madaniy chegaralardan tashqariga chiqadi va butun insoniyat uchun ahamiyatli bo‘ladi.

2. “O‘z insoniyligidan kichikroq” qahramon – bu shaxs butunlay tarixiy zaruratga bo‘ysunib, shaxsiyligini yo‘qotadi va faqat tarixiy shart-sharoit mahsuli sifatida tasvirlanadi. Masalan, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasidagi Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Xorazm podshohi kabi qator tarixiy obrazlar ana shunday obrazlar jumlasidandir.

Bu ta’rif davrning tipik vakili bo‘lgan, tarixiy jarayonlarning timsoliga aylanib, individual xususiyatlarni yo‘qotib, tarixiy sharoitlarda chuqur ildiz otgan ma’noda “kichik odam” bo‘lib qolgan qahramonga ishora qiladi. Bunday obraz ko‘pincha realistik adabiyotda va sotsialistik realizmda uchraydi, bu yerda asosiy e’tibor shaxsga emas, jamoaga qaratilgan. U tarixga qarshi kurashmaydi, balki unga bo‘ysunadi, uning qo‘lidagi qurolga aylanadi. Uning umumiy tarixiy jarayondagi roli oldida shaxsiy fazilatlar va his-tuyg‘ular orqa fonga o‘tadi. U tarixni yaratmaydi, balki uning aksi, qonunlari va harakatlantiruvchi kuchlari bilan shakllanadi.

¹⁹ Бахтин, М. М. Автор и герой в эстетической деятельности // Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Москва : Искусство, 1979. – С. 9–191.

Tarixiy asarlarning eng muhim xususiyatlaridan biri – unda tasvirlanayotgan voqelikning allaqachon yuz berganligidir. Oddiy (tarixiy bo‘lmagan) asarlarda voqealar rivojining turli variantlari, turli yakunlari va muqobil ssyenariylari mumkin. Ammo tarixiy asar kontekstida bunday imkoniyat yo‘q: tarixiy faktlar muqarrar va qat’iydir. Shu bois tarixiy roman qahramonlari tarixiy zarurat chegarasida harakat qiladilar. Masalan, Brut har qanday tarixiy asarda albatta Sezarning qotili bo‘lishi kerak; Navoiy esa, albatta, gumanist shoir va mutafakkir sifatida tasvirlanishi lozim; Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi kurashishga majbur bo‘lsa, Linkoln esa mamlakatni fuqarolar urushidan qutqarib qola olmaydi. Tarixiy faktlarning bu muqarrarligi qahramonning erkin harakat qilish imkoniyatini keskin cheklaydi. Tarixiy asar poetikasidagi qahramonning ana shunday “erksizligi” yoki majburiyatlari uning xarakterini belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Qahramonning erkin tanlov imkoniyati tarixiy zarurat tomonidan cheklanganligi sababli, tarixiy asar o‘ziga xos fojiaiy mazmunga ega bo‘ladi. Bu fojiaiylik, bir tomondan, qahramonning tashqi dunyo bilan, ikkinchi tomondan, uning o‘zi bilan ichki ziddiyatga kirishishidan kelib chiqadi.

Bunday ziddiyatlarning ildizi ijtimoiy-tarixiy sharoitlarning qat’iy belgilanganligidadir. Tarixiy voqelikning qat’iy determinatsiyasi qahramonni erkin qaror qabul qilish imkoniyatidan mahrum qiladi. Shu sababli tarixiy asar qahramoni oddiy romandagi qahramonga qaraganda ko‘proq darajada deterministik qonuniyatlarga bo‘ysunadi.

Tarixiy mavzudagi asarlarda qahramon o‘z tarixiy davrining mahsuli sifatida muqarrar voqealarga bo‘ysunadi, biroq shu bilan birga yozuvchi obrazga umuminsoniy va zamonaviy ma’nolar yuklaydi. Bu ikkitomonlamalilik tarixiy asarni boshqa asarlardan ajratib turadi va unga fojiaiy falsafiylik baxsh etadi. Shu orqali tarixiy asar nafaqat tarixiy voqealarni badiiy qayta yaratish, balki insoniyat taqdiri, tarixiy zarurat va erkinlik masalalarini yoritishning o‘ziga xos maydoniga aylanadi.

Tarixiy asar poetikasida qahramonning erksizligi, ya’ni uning allaqachon yuz bergan tarixiy ssyenariyga muvofiq ravishda muayyan xatti-harakatlarni qilish majburiyati fojiaiylikning o‘ziga xos modalitetini yuzaga keltiradi. Bu fojiaiylik oddiy psixologik iztirob yoki shaxsiy kechinma natijasi emas, balki tashqi ijtimoiy-tarixiy zaruratning natijasidir. Tarixiy syujet o‘z mohiyatiga ko‘ra teleologik xarakterga ega: muqobil ssyenariylar istisno qilinadi, variantlar yopiqdir. Shu sababli qahramonning ichki intilishlari ko‘pincha tarixning qat’iy imperativlari bilan keskin to‘qnashadi. Shu nuqtai nazardan, qahramonning dunyo (odatda ijtimoiy institutlar, normalar, davr kuchlari) yoki o‘z “meni” bilan ziddiyatlari yanada kuchayadi. Bu ziddiyat uning axloqiy ideallari bilan tarixiy zarurat o‘rtasida yuzaga keladi va fojiaiylikni yanada chuqurlashtiradi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz adabiyotida tarixiy siymolarning afsonaviy va realistik talqini”** deb nomlangan ikkinchi bobi 5 ta fasldan iborat bo‘lib, 1-faslda ingliz adabiyotida tarixiy mavzu va tarixiy obrazlarning shakllanishi masalasi tahlil etilgan.

Ingliz adabiyotida tarixiy qahramon obrazi yaratish masalasi 5-6 asrlik tarixga ega. Umuman olganda, tarixiy qahramon obrazi yaratilgan asarlarni

davriylashtirish masalasi hali jiddiy tadqiq etilmagan. Biroq shunday bo'lsa-da, tarixiy qahramonlar obrazlari yaratilgan asarlarni yuzaki tadqiq etish orqali ham ularning tadrijini kuzatish imkoniyati mavjud. Xususan, ingliz adabiyotida tarixiy qahramon obrazini tasvirlash davrini 3 ta katta guruhga ajratib o'rganish mumkin:

1. Diniy asarlarda yaratilgan tarixiy qahramon obrazlari;
2. Tarixiy dramalarda yaratilgan tarixiy qahramon obrazlari:
 - a) tarixiy tragediyalarda yaratilgan tarixiy obrazlar;
 - b) tarixiy xronikalarda yaratilgan tarixiy obrazlar.
3. Tarixiy romanlarda yaratilgan tarixiy obrazlar.

O'rta asrlar ingliz adabiyoti, xususan, dramaturgiyasida tarixiy mavzular alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, ular diniy-axloqiy g'oyalarning tarqalishi va jamiyat ma'naviy ongining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Bu davr dramalari, avvalo, ulkan ma'rifatparvarlik va tarbiyaviy vazifani bajargan, tomoshabinlarga xristian dinining asosiy aqidalarini tushuntirish, axloqiy-estetik qadriyatlarni targ'ib etish va tarixiy shaxslar hayoti orqali ibratli xulosalar berishga qaratilgan.

O'rta asrning so'nggi bosqichlariga kelib, ingliz dramaturgiyasidagi evolyusiya jarayonida jiddiy burilish yuz beradi. Dastlabki diniy syujetlar asta-sekin milliy tarixga oid mavzular bilan to'ldirila boshlanadi. Mana shu bosqichda dunyoviy tarixiy mazmundagi dramalar paydo bo'lib, tarixiy xronikalar janri shakllana boshlaydi. Bu janrning yuzaga kelishi nafaqat adabiy ehtiyoj, balki ijtimoiy-siyosiy zaruratlar – jumladan, ispan bosqini tahdidining kuchayishi va aholini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash istagi bilan bog'liq edi.

Shu davr dramalarida Bibliyaviy syujetlardan milliy tarixga o'tish, tarixni ilgari din kontekstida ifoda etishdan uni siyosiy, madaniy va insonparvarlik nuqtai nazaridan talqin qilishga o'tish tendensiyasi kuzatiladi. Biroq shuni qayd etish zarurki, bu davrda yaratilgan tarixiy dramalarda hanuz diniy mazmun va Xudo irodasining namoyoni asosiy estetik prinsip sifatida saqlanib qolgan. Tarixiy voqealar ilohiy adolat va axloqiy saboqlar bilan uyg'unlashtirilib, ilohiy niyatning inson hayotidagi aksini ko'rsatish maqsad qilib qo'yilgan.

Bu dramalarda tarixiylik afsonaviy elementlar bilan uyg'unlashadi. Tarixiy voqealarga zamonaviy voqeliklar va zamon muammolari kiritilishi, ularning mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga moslashtirilishi kuzatiladi. Bu tendensiya tarixni faqat o'tmish haqidagi hikoya emas, balki hozirgi zamon uchun ham ma'naviy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayon sifatida ko'rsatishga xizmat qilgan.

Tarixiy dramalarning ikki asosiy turi ajratib ko'rsatiladi:

Tarixiy fojialar (tragediyalar) – tarixiy voqealarga asoslangan, biroq janr jihatidan tragediya qonun-qoidalari asosida yaratilgan dramalar.

Tarixiy xronikalar – voqealarni xronologik tartibda bayon etuvchi, millat va davlat tarixi haqidagi axborot manba sifatidagi dramatik asarlar.

Uyg'onish davrida tarixiy drama faqat diniy-axloqiy g'oyalarni yoritish vositasi sifatidagina emas, balki inson shaxsiyati, irodasi va siyosiy munosabatlarni tadqiq etish uchun dramatik maydonga aylandi. Bu jarayonda eng muhim figuralardan biri – Kristofer Marlo (1564–1593) bo'lib, u tarixiy tragediya janrini yaratgan dramaturg sifatida adabiy tarixga kirdi.

Marlo o'z ijodida tarixiy voqealarni realistik, psixologik va falsafiy yondashuv bilan talqin etgan dramaturg sifatida ajralib turadi. U tarixni inson irodasi, siyosiy kurash va fojiali tanlovlar maydoni sifatida tasvirlaydi. Uning dramalarida tarix shaxs va tizim, iroda va taqdir, inson va siyosiy zarurat o'rtasidagi tinimsiz to'qnashuvlar maydoni sifatida namoyon bo'ladi.

Marloning tarixiy mavzudagi ilk dramasi "Buyuk Tamerlan" ("Tamburlaine the Great") Markaziy Osiyolik buyuk davlat arbobi va qo'mondon Amir Temur (Tamerlan) hayotiga asoslangan tarixiy fojia. Asarda Temurning qashshoq cho'pondan dunyo hukmdorigacha bo'lgan hayot yo'li fojeaviy pafos bilan yoritiladi. Dramaturg Temur shaxsiyati orqali Uyg'onish davridagi "titan inson" – ya'ni o'zida ulkan aql, iroda, iqtidor va ambisiyani mujassam etgan shaxs timsolini yaratadi. Bu personaj nafaqat o'z zamonasini, balki tarixni ham qayta shakllantira oladigan "superinson" sifatida talqin qilinadi.

Uilyam Shekspirning tarixiy xronikalari esa janrni epik ko'lamdagi dramatik voqelikka aylantirdi. Uning tarixiy dramalari umumiy ma'noda bir-biri bilan bog'langan siklni tashkil etib, Plantagenetlar sulolasining yuksalishi va qulashini, feodal nizolardan millat birligiga o'tish jarayonini qamrab oladi. Bu xronikalar nafaqat tarixiy voqealarni tasvirlashga, balki ingliz davlatchiligi g'oyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shekspir tarixiy shaxslarni faqat siyosiy funksiyaga ega bo'lgan shaxslar sifatida emas, balki inson ruhiyatining teran va murakkab qatlamlarini aks ettiruvchi obrazlar tariqasida yaratadi.

Kristofer Marlo va Uilyam Shekspir tarixiy drama va xronikalar orqali ingliz tarixini faqat tasvirlaganlar emas, balki uni dramatik badiiy tadqiq obyektiga aylantirdilar. Marlo shaxs va tarix o'rtasidagi to'qnashuvni fojiali dramatizmga tadqiq qilgan bo'lsa, Shekspir tarix orqali millat, davlat va inson tabiatini keng miqyosda yoritdi. Ularning ijodida tarixiy drama – ma'naviy, siyosiy va estetik tadqiqot vositasiga aylandi. Shekspir xronikalari orqali tarixning nafaqat tashqi voqealar, balki inson qalbining dramasi ekani isbot etildi.

Bobning 2-faslida Uyg'onish davri ingliz dramalaridagi tarixiy obrazlar tasvirida tarixiylik va epiklikning sinkretikligi masalasi tadqiq etilgan. Ingliz adabiyotida yaratilgan ilk tarixiy shaxs obrazlaridan biri, albatta, Amir Temur obrazidir. Amir Temurning adabiyotdagi ilk obrazi ingliz dramaturgi Kristofer Marlo tomonidan yaratilgan. Ikki qismdan iborat "Buyuk Temur" tragediyasi Amir Temur tarixiy shaxsi haqida bo'lsa-da, Marlo bosh qahramoni afsonaviy shaklda tasvirlangan. Zero, epik an'analar badiiy adabiyotning turli janrlariga o'z ta'sirini hanuz o'tkazib kelar va bu Marloning "Buyuk Temur" tragediyasi uchun ham xarakterli edi.

Epik asarlarda bosh qahramon yosh, aqlli va jismonan baquvvat etib tasvirlangan. Asar qahramoni, odatda, uzoq yerlarga safarga chiqadi, boshidan turli voqealarni kechiradi, sinovlardan o'tadi, yosh va go'zal qizlarning muhabbatiga erishadi va, albatta, davlat hukmdoriga aylanadi. Xalq eposlaridagi bu syujet liniyalari bir oz o'zgargan shaklda o'rta asrlar ritsarlik poema va romanlariga kirib keldi va xalq ertaklarida ham turli ko'rinishlarda yashab qoldi.

Marlo ham ana shu an'anaviylik izidan boradi: Amir Temur shaxsini tasvirlashda xuddi epik asarlardagi kabi uslubdan foydalanadi. Marlo Temurni "baland bo'yli, tik qomatli deb tasvirlaydi. Uning yelkalari keng bo'lib, unda, xuddi Atlant kabi, go'yo butun dunyoni ko'tarib tura oladiganday, deydi u. Tasvirda uzun qo'llarining kuchli mushaklari uning dahshatli qudratidan darak beradi, tarzida ko'rsatilgan. Sochlari esa, xuddi Axillesniki kabi oltinrang. Ko'zlari esa o'tkir va sehrli. Bularning hammasi uning qudratidan va dunyo hukmdori bo'lishidan darak beradi".

Xuddi epik qahramonlar singari Marlo Temuri qiyin sinovlarni boshidan kechiradi, kam sonli qo'shini bilan mingta suvoriyni, keyin esa forslarning bir necha mingdan iborat qo'shinini yengishga muyassar bo'ladi. U Misr hukmdorini mag'lub etadi va uning go'zal qizi Zenokrataga uylanadi va qirollik tojini kiyadi.

Marlo dramasida voqealar xuddi folklordagi epik asarlaridagi kabi rivojlanadi. Faqat xayratlanarli tomoni shundaki, ayrim voqealar tasviri Amir Temur hayotida ham sodir bo'lgan tarixiy xodisalar bilan uyg'unlik kasb etadi.

Marlo tadqiqotchisi A.Parfyonov Temur (Tamerlan) xarakterida haqiqiy epik qahramonga xos bo'lgan sifatlar yetishmaydi, deb yozadi. Mohiyatiga ko'ra epik qahramon xalqdan chiqqan umumlashma obraz hisoblanib, o'zi yetishib chiqqan muhitning orzu umidlari va yaxshi sifatlarini o'zida mujassam etadi, deb yozadi u²⁰.

A.Parfyonovning gapida jon bor. Biroq ayrim eposlar mavjudki, ularda bosh qahramon muayyan hollarda xalq manfaatidan ko'ra o'z manfaatini ustun qo'ygan. Masalan, Kavkaz xalqlari folkloriga mansub "Nartlar" eposida bosh qahramon Batrazning xatti-harakatlari nart xalqining orzu umidlarini ro'yobga chiqarish emas, balki otasi va onasini haqorat etgani uchun ulardan o'ch olishga qaratilgan edi. Batraz ham epik qahramon, u afsonaviy qudratga ega. Uning eng muhim sifati mohir jangchi ekanligidir. Batraz nart eposida qahramon sifatida emas, balki jangchi sifatida tasvirlangan. Unga epos qahramonlariga xos bo'lgan sifatlar begona edi²¹.

Marlo ham o'z qahramonini tasvirlashda aynan ana shu yo'ldan borgan. Aslida Marlo yunon-grek mifologiyasidan juda yaxshi xabardor bo'lgan. Bu miflarda yarim ma'bud, yarim inson ko'rinishidagi qahramonlarning hammasi ham xalq orzu umidlarini ro'yobga chiqaruvchi personaj bo'lmagan. Garchi mohir jangchi, mardlik, oliyjanoblik kabi xislatlarga ega bo'lsa-da, hamisha oddiy xalq tashvishini qilavermagan. Masalan, Homerning Axillesi xuddi ana shunday tasvirlangan²².

Dramaning birinchi qismida Temurning turk qo'shinlarini yengishi, Boyazidni asir olishi, uni tahqirlashi, qafasga solib, o'zi bilan olib yurishi, otga minish uchun oyog'i tagida tiz cho'ktirgani kabi voqealar tasvirlanadi. Yevropaning ko'pchilik tadqiqotchilari dramada aynan Boyazidning qafasga solinishi voqeasiga asosiy e'tiborni qaratadilarki, necha zamonlardan beri bu

²⁰ Марло Кристофер. Сочинения. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1961. Вступительная статья А.Парфёнова. – С.16.

²¹ Гасанов Заур. Царские Скифы. – New York: Liberty publishing house, 2002. – С. 98-103.

²² Бу ҳақда қаранг: Homer. The Iliad. Translated by Alexander Pope. Flaxman's designs, 1899.

masala G'arb adabiyotshunoslari va tarixchilarining ko'plab tortishuvlariga sabab bo'lib keladi.

Qafas bilan bog'liq voqea Yevropada Ibn Arabshohning asari lotin va fransuz tillariga tarjima qilinmasidan ancha oldin bor edi. "Oyoq ostidagi stul" esa sharq manbalarida umuman uchramaydi. Marlo bu epizodni Pedro Meksiyadan olgani aniq. Biroq shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, bu timsol Pedro Meksiya asaridan avvalgi boshqa asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Xususan, miloddan avvalgi 260 yilda Rim imperatori Valerian (260-253 yillarda Rim imperatori bo'lgan) sasoniylar sulolasi podshohi Shopurning (240-272 yy) oyoqlari ostida ana shunday xor-zorlikda bosh ekan. Erondagi Nishopur shahri yaqinidagi Tangi Choganda tosh qoyaga o'yib ishlangan rasmda Valerianning Shopur oyog'i ostida tiz cho'kkan holda bosh egib turgani tasvirlangan²³. Bundan tashqari, Jon Foksning 1570 yilda nashr qilingan "Books of martyr"²⁴ asarida hamda Jerri Brotton²⁵ qalamiga mansub asarda ham Angliya qiroli Henri VIII ning papa Klement VII ga nisbatan munosabatida Temurning Boyazidga munosabati bilan bir xil holat tasvirlangan surat bor.

Amir Temurning buyuk jahongirliги haqidagi afsonalar va buyuk Sohibqironga g'arbliklar va sharqliklarning simpatiyasi g'ayritabiiy voqealarni, ya'ni Temur bilan bog'liq bo'lmagan voqealarni ham unga nisbat berishga va shu tariqa Sohibqironni ideallashtirishga olib kelgan. Amir Temurning Marlo dramasiidagi tasvirlarini tipiklashtirish, deb talqin qilish, bizningcha, to'g'ri bo'ladi. Bosh qahramonning xatti-harakati bilan tipik xarakteri mutanosibliги²⁶ shu o'rinda aniq namoyon bo'ladi. Tarixiy voqealar va tarixiy shaxs obrazi o'rtasidagi mutanosiblikni ikki karra ikki to'rt singari talab qilish badiiy asar qonuniyatiga ziddir.

Bobning 3-fasli ingliz tarixiy xronikalaridagi tarixiy shaxs obrazi konsepsiyasi tahlil etilgan.

Uilyam Shekspir xronikalarida tarixiy shaxs obrazining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan obyektiv omillar haqida gapirganda, avvalo Shekspir yashagan davr – Yelizaveta davridagi Angliya ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga e'tibor qaratish lozim. Aynan shu davrda Angliyada tarixiy drama janri yoki ingliz tilida aytilgandek, "history" janri shakllandi va keng tarqaldi.

Ushbu janrning ommalashuvi mamlakatda kuchayib borayotgan vatanparvarlik kayfiyatlari bilan bevosita bog'liq edi. Bu kayfiyatlar esa, o'z navbatida, Angliyaning siyosiy nufuzining oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonda 1588-yilda Ispaniyaning "Yengilmas Armada"si ustidan qozonilgan g'alaba muhim rol o'ynagan edi. Shundan kelib chiqib, asarlar omma tomonidan iliq kutib olinishi uchun, ayniqsa, xorijiy urushlar yoki tashqi qarama-qarshiliklar tasvirlanganda, tarixiy xronikalar mualliflari Angliya tomonida qatnashgan tarixiy shaxslarni asosan ijobiy obrazda tasvirlashga intilganlar. Aksincha, Angliyaga

²³<https://www.google.com/search?biw=1366&bih=662&tbm=isch&sa=1&ei=S0UFW4eyFs2TmwXflrrwDw&q=Naqshi+Rustam&oq=Naqshi+Rustam>

²⁴ <https://www.google.com/search?q=john+foxe+book+of+martyrs&source>

²⁵ Brotton, Jerry. This orient isle. Elizabethan England and the Islamic world. – London: Penguin random house, 2016. – P.162.

²⁶ Томашевский Б.В. Теория литературы. – М.: Поэтика, 1936. – С.215.

qarshi bo'lgan raqiblar esa sahnada salbiy qahramonlar sifatida gavalangan. Masalan, "Genrix VI"ning birinchi qismida fransuz xalqining milliy qahramoni bo'lgan Janna d'Ark jodugar sifatida tasvirlanadi. U o'z vataniga yordam berish uchun qora kuchlarni chaqiradi, biroq unga adolatli jazo tahdid solgan paytda, o'z jonini saqlab qolish uchun o'zining oliynasab kelib chiqishini isbotlash maqsadida oilasidan voz kechadi.

Shekspirning tarixiy xronikalaridagi obrazlarning psixologik teranligi masalasi ham alohida e'tiborga molikdir. Shekspir tarixiy drama janrini inqilobiy tarzda o'zgartirdi. U faqat siyosiy shaxslarni emas, balki ichki ziddiyatlar va xarakter evolyusiyasiga ega bo'lgan murakkab psixologik obrazlarni yaratdi. Xususan, "Richard III" dramasida inson yovuzligining anatomiyasi tasvirlangan deyish mumkin. Richard jahon adabiyotidagi eng psixologik jihatdan mukammal yovuz qahramonlardan biridir. Uning jismoniy nuqsoni ichki buzilishning tashqi ifodasi sifatida talqin qilinadi, biroq Shekspir shaxsiy jarohatlarning hokimiyatga chanqoqlikka qanday aylanishini ko'rsatadi. Richard o'tkir aql va teatrga xos ifoda vositalariga ega. U yovuzlik rolini ataylab o'ynaydi va bundan go'yoki estetik zavq oladi. Uning monologlari o'zini tahlil qilish qobiliyatini hamda o'z yovuzligini anglash darajasini ochib beradi.

"Genrix IV" dramasida esa noqonuniy hokimiyatning inson uchun og'irligi masalasi yoritilgan. Asarda Genrix Bolingbrok uzurpator psixologiyasini namoyon etadi. U taxtni egallaganidan so'ng, doimiy xavotir va shubha ichida yashashga mahkum bo'ladi. Shekspir qonuniy podshoni ag'darish ortidan kelgan ayb hissi qanday qilib Genrixning butun hukmronligini zaharlab qo'yishini mahorat bilan tasvirlaydi. Ayniqsa, uning o'g'li Xel (Hal) bilan bo'lgan munosabati fojiali: podsho o'z vorisini tushuna olmaydi, bu esa uning yolg'izligini yanada kuchaytiradi.

Bobning 4-faslida ingliz romannavisligidagi tarixiy siymo obrazi yaratishning yangi konsepsiyasi tadqiq etilgan. Adabiyotning alohida janri sifatida tarixiy roman bugungi kunda tushuniladigan shaklida XIX asrning birinchi yarmida romantizm deb ataluvchi adabiy yo'nalish doirasida shakllangan. Ushbu adabiy yo'nalish vakillari ko'pincha o'z mamlakatlarining o'tmishiga – o'rta asrlar tarixiga va aynan shu davr ildizlariga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodiga nostalgiya bilan murojaat qilganlar. Adabiyotshunos Mariya Yelizarova ta'kidlaganidek, romantizm vakillari tarixiy jarayonni, insoniyat jamiyati tarixini chuqur o'rganishga arzigulik deb hisoblab, uni avvalo ezgulik, yovuzlik, adolat, haqiqat kabi umuminsoniy abadiy qadriyatlarning namoyon bo'lishi deb bilganlar²⁷.

Tarixiy roman janrining asoschisi sifatida Valter Skott jahon adabiyotida eng mashhur janrlardan birining kanonik xususiyatlarini belgilab berdi. Tarixiy qahramonning badiiy obrazini yoritishda, avvalo, Skottning asarlariga murojaat qilish lozim.

V.Skotning asosiy vazifasi davrning madaniy va tarixiy aloqalarini tasvirlash va tushuntirish edi. Romanning barcha to'qnashuvlari kesishgan kompozision o'zagini qahramon taqdiridagi shaxsiy voqealar tashkil etadi. V.

²⁷ Елизарова М.Е. и др. История зарубежной литературы XIX века. — М., 1964.

Skot romanda ham tarixiy shaxslar, ham yarim tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarni tasvirlaydi. Ammo yozuvchi asar markaziga hamisha boshqa bir personajni – oddiy qahramonni qo‘yadi. Ana shu yangi turdagi qahramon V. Skotning asosiy va eng muhim kashfiyotlaridan biridir.

Valter Skot romanlarida tarixiy konflikt va axloqiy-ma’naviy ziddiyatni aniq ajratish mumkin. Agar tarixiy konflikt bosh qahramon ko‘pincha biror tomonni tanlamasligi yoki ularning yarashuviga sababchi bo‘lishi mumkin bo‘lsa, axloqiy-ma’naviy ziddiyatda u mutlaq asosiy ishtirokchidir. Tarixiy shaxslar esa, odatda, bosh qahramonning bu ziddiyatni hal etishida yordamchi yoki qarshi turuvchi epizodik obrazlar sifatida maydonga chiqadi. Albatta bu qoidaga istisno tarzda yaratilgan tarixiy qahramonlar obrazlari ham mavjud. Xususan, “Talisman” romanidagi Monferratlik Konrad ana shunday obrazlardan biri bo‘lib, u axloqiy-ma’naviy ziddiyatda shotlandiyalik ritsar sir Kennetga qarshi chiqadi.

Valter Skot o‘z asarlarida ham to‘qima, ham tarixiy qahramonlarning obrazlarini yaratishda ma’lum darajada obyektivlikni saqlaydi. Masalan, “Kventin Dorvard” romanida Lyudovik XI asosan salbiy personaj sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, uning obrazidagi barcha xususiyatlarni (xarakteri, xatti-harakatlari) butkul salbiy deb bo‘lmaydi. Qolaversa, uning atrofida ijobiy obrazlar ham mavjud. Xususan, Kventin Dorvardning shotlandiyalik kamonchilari, uning amakisi Lyudovik Lesli va ularning sardori lord Krouford obrazlarini ijobiy deb atash mumkin. Shuningdek, Lyudovik XI qaroqchi risar Giyom de Lamarkdan siyosiy kurash uchun foydalansa-da, u Burgundiya gersogidan mustaqillik uchun kurashayotgan Lej shahri fuqarolarini qo‘llab-quvvatlaydi va bu kurash romanda muallif tomonidan mutlaqo salbiy hodisa sifatida talqin etilmaganini kuzatish mumkin.

Valter Skot faqat tarixiy shaxslar bilan bog‘liq voqealarni emas, balki ular uchun o‘ylab topilgan to‘qima qarindoshlar obrazlarini ham yaratadi. Masalan, u qirol Eduardning avlodi sifatida Etelstanni yoki Qirol Richard Sheryurakning uzoq qarindoshi sifatida Edit Plantagenetni tilga oladi. “Talisman” romani muqaddimada yozuvchi bu kabi badiiy to‘qima haqida bu xayoliy personajlar “romantik bayon uchun zarur” bo‘lgani haqida yozadi²⁸. Bu holatda bu narsa Richard I va Salohiddinning ijobiy fazilatlarini ta’kidlash, ular o‘rtasida haqiqatan mavjud bo‘lgan hurmat, hattoki hamdardlikni aks ettirish uchun zarur bo‘lgan. Shu tariqa, Valter Skotning tarixiy romanlaridagi asosiy maqsadi tarixiy shaxslarning eng muhim xarakter xususiyatlarini tasvirlash, yoki aniqroq aytganda, muallif o‘rgangan tarixiy manbalarga asoslanib, ularni qanday ko‘rgan bo‘lsa, shunday talqin etishdan iborat bo‘lgan.

Valter Skotning “Ayvengo” romanida tarixiy shaxslarning badiiy obrazini yaratish jarayoni o‘ziga xos estetik va ideologik tamoyillarga asoslanadi. Muallif Sher yurakli Richard, shahzoda Jon, Robin Gud kabi tarixiy shaxslar obrazlaridan mohirlik bilan foydalanib, XII asr oxirlaridagi o‘rta asr Angliyasining ko‘p qirrali, dinamik ijtimoiy-siyosiy manzarasini badiiy talqin etishga erishadi. Asarda tarixiy voqealar va shaxslar xayoliy elementlar bilan uyg‘unlashtirilgan

²⁸ Scott W. The Talisman. London and Glasgow. Collins Clear Type Press, 1832.

holda, o'quvchida o'sha davrga oid yanada jonli va hayajonli tasavvur uyg'otadi. Shu bilan birga, muallif real tarixiy figurani badiiy talqin qilishda turfa yondashuvlardan foydalanganini ko'rish mumkin: ba'zilarini ideallashtiradi, boshqalarini esa tanqidiy nuqtai nazardan ko'rsatadi.

Romandagi asosiy tarixiy obrazlardan biri Qirol Richard I, ya'ni Sher yurakli Richarddir. Skot ushbu obrazni o'z davri ritsarlik idealining timsoli sifatida yaratadi. Muallif ataylab bu tarixiy shaxsga romantik tus beradi, uni jasorat, saxovat, adolatparvarlik kabi fazilatlar bilan bezatadi. Richardning obrazini ideallashtirish orqali Skot uni o'rta asr ritsarlik madaniyatining eng yuksak namunasi sifatida ko'rsatadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Richard I ziddiyatli shaxs bo'lganiga qaramay, romanda u ko'proq ijobiy, hatto afsonaviy qahramon qiyofasida gavdalanadi.

Valter Skot tarixiy shaxslarni badiiy qahramon sifatida talqin qilishda ularning tarixiy voqelikka bog'lanishini saqlagan holda, adabiy estetik talablarga ham javob beruvchi rang-barang obrazlar yaratishga erishadi. Qirol Richard I obrazi bunga yorqin misoldir. Muallif tarixiy haqiqat bilan badiiy to'qimaning o'zaro uyg'unlashuvini mahorat bilan namoyon etgan holda, o'quvchini nafaqat tarixiy Angliya muhitiga olib kiradi, balki universal insoniy qadriyatlar ustidan ham mulohaza yuritishga undaydi.

Bobning 5-faslida zamonaviy, ya'ni modern va postmodern ingliz adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini yaratish tamoyillari tahlilga tortilgan.

XX asrda tarixiy romanning shakl va mazmundagi o'zgarishi butun adabiy jarayonning asosiy tendensiyalaridan biri bo'ldi. Bu davrda janrning rivojlanishi, avvalo, an'anaviy hikoya uslubining inqirozi va yangi badiiy ifoda vositalarini izlash jarayonlari bilan uzviy bog'liq edi. Skot asos solgan realistik-epik model XX asrga kelib modernistik va postmodernistik tafakkur ta'sirida jiddiy qayta ko'rib chiqildi.

Modernistik adabiyotda tarixiy voqealarga murojaat an'anaviy "obyektiv" voqea hikoyasidan uzilib chiqdi. Bu jarayonda tarix hujjatli aniqlik bilan qayta tiklansa-da, u real voqelikni to'g'ridan-to'g'ri in'ikos etuvchi zanjir sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va subyektiv idrok prizmasidan o'tgan voqelik sifatida namoyon bo'ldi.

Modernistik tarixiy romanning asosiy xususiyatlari quyidagilar edi:

1. Fragmentarlik (parchalanish): voqea va tarixiy jarayonlar uzluksiz epik rivoyatdan ko'ra parchalangan manzaralar orqali namoyon bo'ladi.

2. Subyektivlashuv: tarix shaxs ongi va hissiyoti orqali ko'riladi, individual tajriba markaziy o'ringa chiqadi.

3. Psixologizm: tarixiy voqealarning ma'naviy va ruhiy ta'sirini ochish, tarixiy jarayonlarning inson tafakkurida qanday ifodalanishini tahlil qilish.

Bu tendensiyalarni Virjiniya Vulf, Jeyms Joys kabi modernist yozuvchilarning uslubida, shuningdek, Robert Greyvsning "Men, Klavdiy" kabi tarixiy-badiiy tajribalarida kuzatish mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida tarixiy roman postmodernistik paradigma ta'sirida yanada keskin transformatsiyaga uchradi. Agar modernizm tarixiy tajribani shaxs ongi va ichki kechinmalar orqali anglashga uringan bo'lsa,

postmodernizm tarixni madaniy va mafkuraviy qurilma sifatida qayta yaratdi. Bu jarayonda tarix haqiqat emas, balki matnlar va talqinlar maydoni, hujjatli dalillardan ko‘ra diskurs va ideologiya ta’siridagi qurilma sifatida namoyon bo‘ldi.

Jon Faulzning “Fransuz leytenantining ayoli” yoki Umberto Ekoning “Rosa ismi” kabi asarlarda tarix voqelikni tiklash vositasi emas, balki ma’nolar, ramzlar va intertekstual aloqalar tizimi sifatida taqdim etiladi.

Shu tariqa, Valter Skot taklif qilgan klassik modeldan to postmodernistik tajribalargacha bo‘lgan tarixiy romanning evolyusiyasi janrning ichki rivojlanishinigina emas, balki madaniy-paradigmatik o‘zgarishlarni ham yorqin namoyon qiladi. Agar XIX asr tarixiy romanlari milliy ruhni shakllantirish va ijtimoiy taraqqiyot masalalarini talqin qilishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, XX asr asarlari tarixning o‘zini idrok etish mexanizmlarini tadqiq qilishga yo‘naldi.

Endilikda tarixiy romanning vazifasi faqat o‘tmish voqealarini tiklash emas, balki o‘tmishni ongda qurish va qayta yaratish jarayonini fosh etish, ya’ni tarixning ham ma’naviy, ham ma’rifiy, ham mafkuraviy qirralarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lib qoldi. Modernizm o‘tmishni emas, zamonaviy dunyoni o‘rganishga, jamiyatning katta qahramonlari emas, balki shaxsning ichki tajribasiga, bir butun voqea zanjiri emas, balki fragmentarlik va ong oqimining psixologik kechinmalariga e’tibor qaratdi. Jeyms Joysning “Ulysses” yoki Virjiniya Vulfning “Mrs. Dalloway” asarlari shu yo‘nalishdagi namunaviy tajribalardir: ularda tarixiy voqea asosiy markazdan chetga surilib, shaxsiy ong va subyektiv dunyoqarash badiiy voqelikning bosh mezoniga aylandi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek adabiyotida tarixiy qahramon tasviri tahayyulida milliy va mintaqaviy xususiyatlar”** 3-bobi 4 fasldan iborat. Bobning 1-faslidagi o‘zbek adabiyotida tarixiy obrazlar tasviri an’analarning shakllanishi haqida.

Tarixiy qahramon obrazining rivojlanishi jahon adabiyotida umumiy poetik qonuniyatlar bilan birga, milliy va mintaqaviy xususiyatlarga ham ega. Chunki har bir madaniy muhit tarixiy shaxsni bevosita o‘ziga xos milliy an’analar, g‘oyaviy-estetik yo‘nalishlar hamda ijtimoiy-siyosiy voqelikka tayanadi. Natijada tarixiy qahramonning badiiy talqini bir xil emas, balki mintaqaviy tafakkur va estetik me’yorlar ta’sirida turlicha yo‘nalishlarda shakllanadi.

Sharq adabiyotida afsonalarga asoslangan xolda tarixiy shaxslar obrazini yaratish an’analari paydo bo‘ldi. Bu asarlarda Aleksandr Makedonskiyning shaxsi zafarli yurishlariyu g‘alabalari afsonalar qobig‘iga o‘ralib, tarixiy qiyofasi, faktlar silsilasi o‘zgartirilgan holda talqin qilina boshladi. Natijada tarixiy haqiqatdan uzoq bo‘lgan turli-tuman asarlar yuzaga keldi. Afsonaga aylangan Aleksandr obrazi Iskandar nomi bilan Sharq yozuvchilarining asarlari qahramoni uchun prototip bo‘lib xizmat qildi. Xususan, Ilyos ibn Yusuf Nizomiy Ganjaviyning “Iskandarnoma”, Xusrav Dehlaviyning “Oinayi Iskandariy”, Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy”, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarlari ana shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy ijodidagi Iskandar obrazi tarixiy shaxs, mifologik qahramon va fors-turkiy adabiy an’anaga xos falsafiy timsolning o‘ziga xos sintezidir.

Navoiy Iskandar Zulqarnayn siymosini tubdan qayta ko'rib chiqadi. Agar Yevropa an'anasida u birinchi navbatda fotih bo'lsa, Navoiy dostonida Iskandar adolatli hukmdor, haqiqat izlovchi faylasuf va sivilizatsiya quruvchisi kabi xislatlarga ega inson sifatda tasvirlanadi. U mamlakatlarni shunchaki zabt etmaydi, balki adolatli qonunlar o'rnatadi, o'z fuqarolariga g'amxo'rlik qiladi, zaiflarni kuchlilardan himoya qiladi. Iskandar doimo donishmandlikka intiladi, allomalar, avliyolar bilan suhbatlashadi, borliq sirlarini anglashga intiladi. Ya'juj va Ma'jujga qarshi mashhur "Iskandar devori" madaniyatni vahshiylikdan himoya qilish, hukmdorning ijodiy missiyasi ramzidir.

Navoiydagi Iskandar obrazi muhim tarbiyaviy yukni ko'taradi. Qahramonning xatti-harakati va fikrlari orqali shoir ideal davlat tuzilishi, hukmdorning axloqiy fazilatlarini, hokimiyat va mas'uliyat o'rtasidagi munosabat, bilim va donolik qadriyatlarini, inson hayotining mazmuni haqidagi o'z fikrlarini aytadi.

Navoiy qahramonning serqirra psixologik portretini yaratadi. Uning Iskandari statik emas - u rivojlanadi, shubhalarni boshdan kechiradi, xatolardan saboq oladi. Shoir hukmdorning ichki dunyosini, uning o'z xatti-harakatlari va oqibatlari haqidagi mulohazalarini ko'rsatadi.

Akademik I. A. Orbeli Aleksandrning Sharq adabiyotidagi timsoli haqida shunday yozadi: "Aleksandr Makedonskiyni yangi mamlakatlarni zabt etishga beto'xtov intilgan lashkarboshi etib talqin etgan G'arb xalqlaridan farqli o'laroq, Sharq xalqari uni qadimgi zamon faylasuflarining eng buyugi bo'lmish Aristotelning haqiqiy shogirdi, o'zi ham falsafaga berilgan, atrofini faylasuf olimlar qurshagan...odam sifatida tasavvur etganlar. Aleksandrni shu yo'sinda qabul qilish uchun tarixiy sharoit bor edi"²⁹.

Salohiddin Toshkandiyning 1908-yilda "Temurnoma" asari ham afsonaviy qobiq bilan yo'g'rilgan tarixiy jangnomadir. "Temurnoma"ning ilk sahifalaridanoq Temurning tug'ilishi bilan bog'liq afsona bo'y ko'rsatib turadi. Afsonaning diqqatga sazovor tomoni shundaki, turkiy xalqlar ertaklariga va yozma adabiyotidagi romanik dostonlarga xos tush motivi, qahramonning g'aroyib ravishda tug'ilishi motivi, safar kabi motivlar Sohibqironning kelajak taqdiridan darak beradi, mazkur asarni kitobxon zerikmay o'qishi uchun yuqoridagi motivlar olib kirilgan.

"Temurnoma"da ayniqsa, ertak va afsonalarga xos yakka qahramonlik motivi ustuvor mavqe kasb etgan. Jumladan, Temur dunyoga kelgandan keyin bolaligida Zanjir Sara qudug'idan qirqta qul suv tortadigan qovg'ani yolg'iz o'zi tortib, odamlarga suv ulashadi. Qassobning zil-zambil qanorasini bir barmog'i bilan otib yuboradi. Uxlab yotganida ko'ksiga kulcha bo'lib yotib olgan ilonning boshini tishlab uzib oladi. Yuk to'la aravani ko'tarib otib yuboradi. Garchi qo'tir kasali bilan og'risa-da, yetti yilgacha umuman qashinmaydi.

"Temurnoma"da xalq og'zaki ijodi ta'sirida yuzaga kelgan eng diqqatga sazovor lavha bu sinov motividir. Jumladan, Yaman bekbachchasi, sulton

²⁹ Орбели И.А. Избранные труды. Т. I. Из истории культуры и искусства Армении X-XII вв. – М., 1968. – С. 274.

Muhammad va Amir Temur amirlikni da'vo qilib turganlarida, ularga xonaqoh tomidagi davlat naqorasini chalishni buyurishadi. Yaman bekbachchasi va sulton Muhammad bu topshiriqning uddasidan chiqqa olishmaydi. Navbat Amir Temurga yetgach, naqora "davlati Amir Temuriy" deb sado beradi.

Bobning 2-fasli o'zbek adabiyotidagi milliy uyg'onish davri tarixiy romanchiligiga bag'ishlangan.

Sobiq Sho'ro davrida, xususan, Turkiston o'lkasida yagona bolshevistik guruhning siyosiy hokimiyatni to'liq qo'lga olishi natijasida yakka hokimiyatchilik shakllandi. Buning oqibatida iqtisodiy va madaniy hayot izdan chiqdi, ijtimoiy-siyosiy muhit keskinlashdi. 1920-yillarda xalq turmushi yanada og'irlashib, mustamlakachilik siyosatining ijtimoiy oqibatlari jamiyatda chuqur inqiroz holatini yuzaga keltirdi.

Ana shunday musibatli davrda o'z davrining ilg'or ziyolilari jamiyatdagi keskin o'zgarishlarga befarq qolmadilar. Adabiyot vakillari voqelikni badiiy idrok etib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat bildirdilar. Chunki tarixiy taraqqiyotning eng og'ir, ziddiyat va to'qnashuvlarga boy davrlarida xalq o'z o'tmishiga murojaat qiladi, kechmishini zamonasi bilan qiyoslab, saboq chiqaradi, kelajak uchun yo'l tanlaydi. Tarixiy asarlarning yaratilishi ham ana shunday davrda ijtimoiy ehtiyoj sifatida oldingi o'ringa chiqadi.

XX asrning 20-yillarida yaratilgan tarixiy asarlar ana shu ehtiyoj mahsuli bo'lib, ular milliy adabiyotimizda tarixiy ongni tiklash va xalqning o'zligini anglash jarayonida muhim o'rin tutadi. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani o'zbek adabiyotida birinchi tarixiy roman sifatida qadrlanadi. U asarda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitni badiiy ifodalash bilan birga, xalqning taqdiriyl savollariga javob topishga urinadi.

Qodiriy ijodiga birinchi navbatda o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, u arab yozuvchisi Jirji Zaydonning tarixiy romanlari bilan yaqindan tanishgan. Zaydon orqali u Yevropa tarixiy roman maktabi, xususan, ingliz yozuvchisi Valter Skot ijodidan ilhom olgan. Valter Skot tarixiy roman janrining asoschilaridan biri sifatida tarixiy materialni badiiy voqealar zanjiriga singdirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni individual inson taqdiri orqali ochib berish uslubini Qodiriyga yetkazgan.

Qodiriy tarixiy materialni tasvirlashda ikki yo'lni uyg'unlashtiradi: bir tomondan, u tarixiy shaxslarni voqelikdagi o'rni bilan tasvirlaydi, ikkinchi tomondan, badiiy timsollar orqali xalqning orzu-intilishlari va ma'naviy qiyofasini yoritadi. Yusufbek hoji va uning o'g'li Otabek millatning ilg'or, islohotparvar qatlamini ifodalaydi. Ularning obrazida xalqning milliy birlik, yangilanish va adolatga intilishi mujassamdir. Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek, Normuhammad kabi tarixiy shaxslar esa davrning siyosiy beqarorligi, hokimiyat uchun kurash va shaxsiy manfaatlar tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy fojialarni aks ettiradi. Shu tariqa, romanda badiiy timsollar bilan tarixiy shaxslarning o'zaro munosabatlari uyg'un tasvirlanib, tarixiy voqealar badiiy-estetik qiyofa kasb etadi.

"O'tgan kunlar" romanining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda haqiqiy tarixiy shaxslarning obrazlari ikkinchi planga surib qo'yilgan. Masalan, Xudoyorxon, Musulmonqul kabi tarixda mavjud bo'lgan shaxslar roman syujetini

boshqaruvchi yetakchi qahramonlar sifatida emas, balki voqealarning fonini to'ldiruvchi obrazlar sifatida tasvirlanadi. Bu Qodiriy ijodiy tamoyilining muhim belgilaridan biri bo'lib, u tarixiy faktlar va shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri takrorlash emas, balki ularni badiiy-estetik idrok asosida umumlashtirishga intiladi. Shu tariqa, yozuvchi tarixiy manzarani fon sifatida ishlatib, o'z davrining dolzarb masalalarini badiiy shaklda ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

Roman markazida tarixiy manbalardan emas, balki yozuvchining badiiy tasavvuridan yaratilgan to'qima obrazlar turadi. Ular asosan imtiyozli tabaqa vakillari bo'lsa-da, muallif ularni xalq manfaatlari bilan bog'liq tarzda gavdalantiradi. Shu orqali yozuvchi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi ziddiyatni, ma'naviy-axloqiy masalalarni yorqinroq ko'rsatishga erishadi.

Roman bosh qahramonlaridan biri Yusufbek hoji Vatan va xalq manfaatlari haqida qayg'uruvchi, millat istiqbolini chuqur o'ylovchi ziyoli qiyofasida tasvirlanadi. U o'z manfaatini xalq taqdiridan ustun qo'ymaydi, balki xalq birligini mustahkamlash, o'zaro nizolarni bartaraf etish, milliy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish yo'lida jonkuyarlik ko'rsatadi. Yusufbek hoji obrazida yozuvchi xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklay oladigan kelajakni teran idrok etuvchi arbob timsolini yaratadi. Shu ma'noda, bu obraz XIX asr o'rtalaridagi siyosiy beqarorlik fonida millatni uyg'otishga da'vat etuvchi ramziy qahramonga aylanadi.

Qodiriy asarlarida tarixiy roman janrining asosiy qoidalariga amal qilingan. Romanda tarixiy voqealar real tarixiy shaxslar (Xudoyorxon, Musulmonqul va boshqalar) va badiiy timsollar (Yusufbek hoji, Otabek, Kumush) uyg'unligida tasvirlanadi. Bu jihat asarni nafaqat o'zbek romanchiligida yangilik darajasiga ko'taradi, balki uni jahon tarixiy roman tajribasi bilan hamohang qiladi.

Bobning 3-faslida Sho'ro davri o'zbek adabiyoti tarixiy romanchiligi tadqiq etilgan. XX asr o'zbek tarixiy romani uni boshqa adabiyotlar tarixiy nasridan ajratib turadigan qator xarakterli xususiyatlarga ega. Xususan, yozuvchilar "Oltin asr"ga murojaat qilib, temuriylar davrini (XIV-XV asrlar), Samarqand va Hirotning gullab-yashnagan davrlarini fan, san'at va adabiyot markazlari sifatida ko'pincha qayta yaratdilar. Bu vaqt o'zbek madaniyatining buyukligi ramzi sifatida qabul qilindi. O'tmishdagi buyuk tarixiy shaxslar: Alisher Navoiy, Amir Temur, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniylar markaziy qahramonlarga aylandi. Ularning obrazlari ideallashtirildi va xalq donoligi timsoli sifatida taqdim etildi.

Oybekning "Navoiy" romani XV asrdagi o'zbek xalqi hayotining teran qiyofasini ko'rsatishga bag'ishlangan mumtoz tarixiy asardir. Bu romanning qudrati shundaki, u davr haqiqatini, ijtimoiy-siyosiy kuchlar to'qnashuvi va xalq taqdiridagi burilishlarni qalbdan his ettirib, ularni badiiy sahnaga olib chiqadi. Yozuvchi o'z g'oyaviy maqsadini amalga oshirishda tarixiy shaxslarning haqiqiy qiyofasini qayta tiriltirish bilan birga, to'qima obrazlar orqali ham asarga ruh va jon bag'ishlaydi.

Oybek qalamida tasvirlangan har bir voqea, har bir fakt o'z zamonasidan olingan tarixiy haqiqat bilan uyg'un holda berilgan. To'qima voqealar ham tarixiy manzaradan uzib qo'yilmagan, balki ular bilan mushtarak bir bog'liqlikda

tasvirlangan. Yozuvchi tarixiy qahramonlar ham, to'qima obrazlar ham yaratilishida bir xil realistik tamoyilga suyang'an. Shu bois ularning badiiy pafosi davr hayoti, xalq taqdiri va tarixiy voqelik bilan chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Navoiy asarda oddiy bir shaxs sifatida emas, balki butun davrning timsoli, XV asr o'zbek xalqining milliy uyg'onish ruhi, vatanparvarlik kayfiyati ifodasi sifatida talqin qilingan. Uning shaxsiy hayoti, ma'naviy olami, intilish va orzulari, xatti-harakatlari va axloqiy qiyofasi zamonning ilg'or an'analari bilan uyg'un tarzda namoyon bo'ladi.

Bu qiyofada xalqning o'z taqdirini anglash yo'lidagi qahramonona intilishlari aks etadi. Navoiyning shaxsi orqali yozuvchi butun millatning yuksalishga bo'lgan intilishini, davlat taqdiri hal bo'lar bir davrdagi milliy ko'tarilish ruhini gavdalantiradi. Zotan, tarixiy romanning eng asosiy mohiyati – xalqni tarixning yetakchi kuchi sifatida tasvirlashdir.

Navoiy obrazida Oybek zamonasining ilg'or shaxsini yaratdi: xalqning og'ir ahvolini yengillatishga, uni ma'naviy va ijtimoiy yuksalishga yetaklashga bel bog'lagan buyuk ziyolini. U qahramonda xalq idealini timsollash bilan birga, uning shaxsiy, individual xususiyatlarini ham asrab qoldi. Shu bois Navoiy obrazi faqat tipiklashtirilgan ideal emas, balki o'z taqdiri, ruhiy iztiroblari, yuksak ma'naviy fazilatlar bilan yashaydigan, haqiqiy insoniy qiyofada namoyon bo'ladi.

Navoiy o'z zamonasining farzandi edi. Uning yuragida xalq dardiga hamdardlik, oddiy odamlarga mehr bor edi, ammo u zulm va ekspluatatsiyani yo'qotishni o'z oldiga to'g'ridan-to'g'ri maqsad qilib qo'ymagan. Uni bunday talqin etish Navoiy obrazini asossiz ideallashtirish, tarixiy haqiqatdan uzoqlashish bo'lar edi.

Shubhasiz, Navoiy dohiy shoir sifatida o'z zamondoshlarining ko'pchiligidan yuksak turardi. U tor manfaatlar domiga qamalgan oqsuyak feodallarining egoistik doirasidan chiqib, keng xalq ommasiga yaqinlashdi. Adabiy ijodi va davlat ishlaridagi amaliy faoliyati orqali u xalq manfaatlarini ifoda etdi, xalqqa yaqinligini qattiq ehtiros bilan qayta-qayta ta'kidladi. Biroq u isyonkor emas edi. Navoiy mavjud tuzumga qarshi qo'zg'olonga chorlamadi. Uning faoliyati qanchalik taraqqiyparvar bo'lmasin, baribir o'z zamonasining ijtimoiy-tarixiy chegaralaridan chiqib keta olmasdi. Shu ma'noda Oybek Navoiy obrazini to'g'ri va asosli talqin qildi.

Sho'rolar davrida tarixiy romanlar rasmiy mafkuraga mos kelishi kerak edi, ya'ni tarixiy romanlarda tarixning progressiv talqini - ijtimoiy kurashga urg'u berish, feodalizmni tanqid qilish, o'tmishdagi progressiv tendentsiyalarni izlash, shunigdek, xalqlar do'stligiga urg'u berish, millatchilik va diniy aqidaparastlikni tanqid qilish shart edi. Shu sababli Oybek asarda Navoiyning elparvarligi, kambag'alparvarligi, xalqqa mehr va mehr-shafqatiga ko'proq urg'u berdi, uning ijtimoiylashgan, omma bilan uyg'un qiyofasini tasvirladi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov asosli ta'kidlaganidek, Oybekning asosiy maqsadi ulug' shoir Alisher Navoiyning keng va ko'lamli ijodiga xos

insonparvarlik g'oyalarini ochib berishdan iborat edi.³⁰ Ozod Sharafiddinov ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, Oybek Navoiy xarakterini yaratishda, birinchi navbatda, uning buyuk gumanist ekaniga alohida ahamiyat beradi deya ta'kidlaydi.³¹

Bobning 4-fasli mustaqillik davri o'zbek tarixiy romanchiligida obrazlar yaratishning yangicha tamoyillari masalasi tadqiqiga bag'ishlangan.

O'tgan asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan ijtimoiy uyg'onish milliy tariximizning Sho'ro mafkurasi tazyiqida pinhon tutilgan yoki soxtalashtirilgan yuzlab sahifalarini aniqlash va tamomila yangitdan o'rganib chiqishga hamda keng jamoatchilikka oshkor etishga umummilliy ehtiyoj paydo qildi. Bu davrda o'tmishdagi buyuk tarixiy shaxslarimiz hayotini haqqoniy yoritib berishga qaratilgan qator asarlar bitildi.

Muhammad Alining Amir Temur hayotiga bag'ishlangan tetralogiyasi, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani, Shahodat Isaxonovning "Turon malikasi" romani, Nurali Qobulning "Sultonning so'nggi kuni yoxud Amir Sohibqiron va To'xtamishxon" romani, Abdulla Oripovning "Sohibqiron", Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar yohud bir parivash asiri", Ma'ruf Jalilning "Sohibqiron" ("Amir Temur qissasi"), Qilich Abdunabiyevning "Amir Temur va Yildirim Boyazid", To'ra Mirzoning "Amir Temur", Urfon Otajonning "Xumoyun qabul", Shavkat Pardayevning "Jahongir", Turob Akbarxo'jayevning "Zamon o'g'loni", Salohiddin Sirojiddinovning "Sohibqiron Temur", Nasrullo Qobulovning "Amir Muzaffar fojiasi" kabi yigirmadan ortiq tarixiy mavzudagi asarlar o'quvchilar e'tiboriga havola qilindi. Bu asarlarda tarixiy shaxslar obrazlari afsonaviylikdan yiroq, tarixiy, real asosda yaratildi.

E'tibor beradigan bo'lsak, yuqorida nomlari zikr etilgan asarlarning aksariyati Amir Temur hayotiga bag'ishlangan. Shuning uchun biz, eng avvalo, ham ana shu asarlarning ayrimlarida o'z aksini topgan tarixiy shaxs – Amir Temur obrazini tahlilga tortamiz. Buning uchun Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasini olamiz.

Asarda Amir Temurdagi insoniy sifatlar, oliyjanoblik ham buyuklarga xos fazilatlar tavsif yo'li bilan emas, tasvir vositasida ko'rsatiladi. Adib tasvirning turli usullari orqali Amir Temurdagi rang-barang fazilatlarning namoyon bilish shakllariga e'tibor qaratadi. Tasvir davomida Amir Temurning bilimlarni qissaxon Mavlono Ubayddan, Sayyid Barakadan olgani, buyuk sarkarda shaxsiyatining shakllanishida bu ikkala zot xizmatlarining katta bo'lgani izchil ko'rsatib beriladi. Bu fazilatlar go'yo Amir Temur uchun burch, shunday qilishim shart, degan mazmunni anglatib turadi.

Yozuvchining mahoratidan darak beradigan yana bir narsa shuki, u Temurbekning individual belgilarini ta'rif-tavsif va sifatlashlar orqali emas, o'zining atrofdagilarga munosabatlari, aqidasi, ichki bir madaniyatining namoyon bilish shakllarini tasvirlab berish orqali ko'rsatadi. Saroymulkxonim, Turkon Oqa, Shirinbika, Xonzoda begim, Sulton Baxt begim, Oqa begi kabi saroy ayollari

³⁰ Кўшхонов М. Ойбек // Жахон адабиёти, 2005. – №1. – Б. 20.

³¹ Шарафиддинов О. Миллатни уйғотган адиб // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2004 йил 3 ноябрь. – Б.3.

obrazlari orqali buyuk sarkardaning oilaga va ayollarga bo'lgan munosabati ochish va yorqin tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali er va ayol, ini va singil, qaynota va kelin, ota va farzand o'rtasidagi munosabatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Tasvir asnosida jahongirning ham farishta emasligi, uning ham ko'p qatori oddiy insonligini, kezi kelganda uning ham xato qilishi mumkinligi va Birubor ishlari oldida u ham ojiz ekani ko'rsatib o'tiladi. Qilingan xatolardan afsus chekishi va azoblanishi Isfaxon voqealari tafsilotlarida ham ifodalangan. Biroq shuni ham e'tiborga olish kerakki, ulkan mamlakatning tashvishlari ham ulkan bo'ladi. Bu tabiiy holat, chunki ilgari u bir necha yuz kishiga bosh bo'lgan bo'lsa, endi ulkan bir mamlakatning, ulug' bir xalqning tashvishi uning yelkasida edi. Buning esa, albatta, o'ziga yarasha qiyinchiligi, mushkulligi bor.

Temurbek obraziga chizgi roman boshida bir marta ko'zga tashlanadi. Ammo uning tadbirli, adolatli amir, nafaqat qo'l ostidagilarga, balki umuman inson zotiga mushfiq va mehribon ekani har bir xatti– harakatida ko'rinib turadi. Temurbekning shaxsiyatiga oid tasavvurlarni oydinlashtirib, kitobxonni ishontirish uchun Muhammad Ali ko'p tarixiy ma'lumotlarni, dalillarni o'rta tashlagani sezilib turadi. Albatta, yozuvchining maqsadi Temurbekni farishta qilib tasvirlash emas, balki qanday bo'lsa shunday tasvirlashdir.

Dissertatsiyaning **“Sharq va G'arb adabiyoti hujjatli romanlarida tarixiy shaxs siymosi talqini”** deb nomlangan 4-bobi 3 fasldan iborat bo'lib, 1-faslda hujjatli nasr janrlarining poetik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Hujjatli nasr adabiy janrining asosiy maqsadi – tarixiy shaxslar, voqealar yoki ijtimoiy voqeliklarni hujjatli manbalarga tayanib, ularni badiiy tahlil va konseptual yoritishdan iboratdir. Bu janrning o'ziga xosligi shuki, u ham hujjatlarga asoslangan ilmiy tadqiqot, ham badiiy yozuvning elementlarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, hujjatli nasr faqatgina faktlarni aks ettirish bilan cheklanmay, ularni badiiy tasvir va tahlil vositasida o'quvchi ongiga yetkazish vazifasini ham o'z zimmasiga oladi.

Hujjatli nasrga bo'lgan ilmiy yondashuv adabiyotshunoslar orasida keng muhokamaga sabab bo'ldi. Adabiyotshunos olimlar ushbu yangi janrga ta'rif berishda uning turli qirralarini e'tiborga olishdi.

E.G.Mestergazi fikricha, “Hujjatli adabiyotda” badiiy tasvirning o'ziga xosligi shundaki, bu yerda badiiy obraz xayoliy emas, real voqealar asosida qurilgan va muallifning “men”i va uning voqelik tuyg'usini yetkazishda alohida yondashuvni talab qiladi. An'anaviy san'at asaridan farqli o'laroq, obraz to'liq ijodkor tomonidan yaratilgan bo'lsa, hujjatli adabiyotda obraz real faktlar, kechinmalar va ularni muallifning tushunishi natijasida vujudga keladi. Bu badiiy fantastika ikkinchi darajali yoki umuman yo'q bo'lgan hujjatli va sub'ektiv ko'rishning o'ziga xos kombinatsiyasini yaratadi.³²

Y.I.Yavchunovskiy “hujjatli adabiyot” janrining qamrovini qisqartirishga harakat qiladi. Uning yozishicha, hujjatli adabiyot “roman-memuarlar, muallif-

³² Местергази Е.Г. Специфика художественной образности в «документальной литературе» [Текст] // Филологические науки. – №1. – 2007. – С. 3-8.

qahramon hayotining ma'lum bir davri haqidagi hujjatli hikoyalar, sayohat kitoblari, qahramonlar va voqealar haqidagi tadqiqot hikoyalari"dir.³³

Rus filologi va adabiyotshunosi V.S. Muravyovning ta'kidlashicha, "Badiiy nasr tarixiy voqea va ijtimoiy hayot hodisalarini to'liq, qisman yoki ekspozitsiyada ko'rsatilgan hujjatli materiallar tahlili orqali o'rganadi".³⁴

Hujjatli nasrda hayotiy faktlar va hujjatlar badiiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, ularni tarixiy manzarada aks ettirishga urg'u beriladi va qahramonlarning ijtimoiy yoki tarixiy o'rni, shuningdek ularning ta'siri batafsil ko'rsatiladi. Bu janrda muallif faktlarning ilmiy va estetik jihatdan uyg'unlashtirilishiga katta e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Personajlarning badiiy tasviri hujjatli nasrda mavjud bo'lgan holda, muallifning asosiy vazifasi – hujjatlarga tayanib chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud faktlarni ko'pqirrali tarzda yoritish va ularni badiiy-estetik shaklga solishdir. Bu esa muallifdan tarixiy voqealar va shaxslarning aniqlik darajasini saqlash, shu bilan birga o'quvchida mantiqiy fikrlashni shakllantirishni talab qiladi. Shu ma'noda hujjatli nasrda tarixiy va ilmiy aniqlik alohida ahamiyatga ega bo'lib, janrning ishonchliligi va o'quvchiga ta'siri ana shu asosda shakllanadi.

Bobning 2-fasli hujjatli romanlardagi tarixiy shaxslar siymosi tasvirida muallif maqsadining ahamiyati qanday rol o'ynashi va bu jatayonning iyyimoiy-siyosiy tomonlarini tadqiq etadi.

Ajdodlarimiz haqida yozilgan har bir asar bizning ham ma'naviy mulkimizdir. Taassuf bilan aytish kerakki, Yevropa yoxud Amerika va Sharq o'rtasidagi o'zaro anglashmovchiliklar, ziddiyatli qarashlar turli davrdagi adabiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Hattoki, o'tmish voqealarini hikoya qilish, izohlash, zamon odamlariga kimning aslida kim bo'lganini yetkazib berishda ham siyosatning nozik o'yinlari o'z so'zini aytmoqda. Yozuvchi tarixga xolis qaramas ekan, bu ahvol kitobxonlar ongida buyuk shaxslar haqida noto'g'ri tushunchalar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi, shubhasiz. Adabiyot va tarix har qanday narsadan (bu o'rinda siyosatni nazarda tutmoqdamiz – O.D.) xoli bo'lmog'i darkor.

Justin Marotsi asarida uning yozuvchilik pozitsiyasidan ko'ra jurnalistlik mavqesidan turib voqea-hodisalarga baho berishga urinishlari yaqqol sezilib turadi. Sariq matbuotning o'z maqsadiga erishish yo'lida yuzaki va soxta ma'lumotlarga tayanishi, o'quvchilar e'tiborini ko'proq tortish uchun "shov-shuvga asoslangan" vahimali ma'lumotlarni omma e'tiboriga havola etishi kabi uslublar asarda yaqqol sezilib turadi.

Bir qarashda yozuvchi, asosan, Sharq va G'arb muarrixlari bergan ma'lumotlarni kitobxonlarga yetkazib berish vazifasini bajarish bilan cheklanishga harakat qilganga o'xshaydi. Biroq tarixiy manbalardan u ustalik bilan foydalangan va ularni o'zining maqsadiga bo'ysundira olgan. Asarni o'qir ekanmiz, uning

³³ Явчуновский Я. Документализм в современной советской прозе [Текст] // Советская литература. – Саратов, 1969. – С. 140.

³⁴ Муравьев В.С. Литературная энциклопедия терминов и понятий [Текст] / Под ред. А.Н. Николюкина. Москва: НПК Интелвак, 2001. – С. 234.

yoʻzilishidan anglashiladigan yagona maqsad kunday ravshan boʻlib qoladi. Yozuvchi Amir Temur shaxsiga bir tomonlama yondashgan.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Jastin Marotsi Sharq solnomalaridagi maʼlumotlarni kitobxonga doim ham toʻgʻri yetkazishga harakat qilmagan. Baʼzi oʻrinlarda arzimaydigan koʻringan dalillarni tushirib qoldirish orqali tarixiy shaxs va u bilan bogʻliq tarixiy voqea haqidagi qarashlarni oʻzgartirib yuborishgan. Masalan, Bagʻdod voqeasi haqida yozarkan, Amir Temurning shahar ahlidan koʻplab kishilarga rahm-shafqat qilib, avf etgani haqida yozmaydi. Marossi maʼlumotlarini oʻqir ekanmiz, Bagʻdod ahli tamomila qirilib ketgan, degan tasavvur paydo boʻladi. Vaholanki, Nizomiddin Shomiy ayni oʻsha voqeani aniq va batafsil tasvirlab bergan. Uning yozishicha, shahar qamalidan chiqib kelgan koʻplab odamlarga Sohibqiron qoʻshinlari yaxshi muomala qilishgan. Qirq kun davom etgan qamalning har kunida bunday qochqinlardan anchasi shaharni tark etgan edi³⁵. Negadir Jastin Marossi asarini oʻqigan kitobxon, u oʻzini bu maʼlumotlardan goʻyo bexabardek koʻrsatganiga amin boʻladi. Tarixiy voqea va shaxsga “xolisona” baho berishning bunday yoʻli maʼlum bir maqsadga qaratilgani shubhasiz.

Marotsi aksariyat hollarda Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”ga asoslanadi. Bir oʻrinda u, “Temur oʻzidan keyin muzaffarona yurishlari va ulkan qurilishlari haqida xotira qoldirishga qattiq urinadi, ammo bu natija bermaydi”, – deb yozadi³⁶. Albatta, muallif Amir Temur qoldirgan mahobatli inshootlarni, saroylarni, u haqda koʻplab yozilayotgan asarlarni bilmaydi, deyish bir yoqlamalilik boʻlar edi. Marossi Amir Temurning bunyodkorlik ishlaridan yaxshi xabardor boʻlsa-da, oʻzini bilmaganday qilib koʻrsatadi. Zero, uning Amir Temur haqidagi manbalarni oʻqigani, u tufayli Movarounnahr va Xurosonda Uygʻonish davri yuz bergani, uning oʻzi va avlodlari amalga oshirgan obodonchilik ishlari, ilm-fan nihoyatda taraqqiy qilganini juda yaxshi biladi. Faqat Marossining niyati boshqacha, xolos. Marotsi asarini yozish davomida Ibn Arabshoh solnomasiga 70 marotabadan ortiqroq murojaat etgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga ham deyarli shuncha marotaba murojaat qilgan. Biroq diqqatni tortadigan tomoni shundaki, Sharafiddin Ali Yazdiyning faqat harbiy yurishlar natijalari borasidagi hikoyalarigagina murojaat qilgan, xolos.

Jastin Marotsini bir soʻz bilan XX asrning Ibn Arabshohi deb atash mumkin. Uning asaridan olinadigan saboq oʻquvchilarning turkiy qavmlar tarixi, qolaversa, sohibqiron Amir Temur tarixiy shaxsi haqidagi notoʻgʻri xulosalar chiqarishiga sabab boʻladi.

Oʻzbek adibi Pirimkul Qodirovning “Amir Temur siymosi”³⁷ asari esa mazmun-mohiyati bilan Jastin Marotsi asaridan keskin farq qiladi. Asarda nufuzli tarixiy manbalarga asoslangan ilmiylik bilan tajribali, isteʼdodli adibning badiiy mahorati uygʻunlashib, bir-birining taʼsir kuchini oshirgan. Shu tufayli asar chindan sodir boʻlgan olamshumul tarixiy voqealarni va ularning bosh qahramoni – Amir Temur shaxsiyatini qiziqarli syujet, puxta oʻylangan kompozisiya, romaniy

³⁵ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.313.

³⁶ Мароци, Жастин. Тамерлан. Завоеватель мира. – М.: Полиграфиздат, 2010. – С.60.

³⁷ Қодилов Пиримкул. Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2007.

tafakkur yordamida ulug‘vor joziba bilan ko‘rsatadi. Biroq asarni sinchiklab o‘qir ekansiz, muallif faqat Amir Temur bilan bog‘liq yaxshi voqealar, uning hayot yo‘lida uchragan, Amir Temur dramatzimini kuchaytiruvchi g‘ov va to‘siqlar, qiyinchiliklar kabi o‘quvchida Amir Temurga simpatiya uyg‘otuvchi voqealar haqida yozganiga guvoh bo‘lasiz.

Yozuvchi xorij o‘quvchilarini ko‘proq qiziqtiradigan Isfahon, Damashq va Dehli voqealariga o‘z munosabatini bildirmaydi. Bu esa voqealarni bir tomonlama tasvirlagan, degan tushunchalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni bayon etish va izohlashda P.Qodirov aksar hollarda “Temur tuzuklari” asariga tayanib ish ko‘radi.

Bizningcha, har qanday janrdagi asarda ham, agar bu asar tarixiy shaxs haqida bo‘lsa, o‘tmishda ro‘y bergan voqealar mohiyatiga chuqurroq kirib borish taqazo etiladi. Tarixiy shaxsning o‘sha davr jamiyatidagi o‘zgarishlarga qay darajada aloqasi bor, bu o‘zgarishlar kishilik jamiyatining rivojlanishiga olib keldimi yoki inqirozga sabab bo‘ldimi, mana shu kabi savollarga ham javob berish kerak.

Bobning 3-fasli esa tarixiy shaxslar obrazini yaratishda ilmiy-tarixiy manbalarning o‘rni qanday ekani masalalariga bag‘ishlangan.

Yevropalik ko‘plab sharqshunoslarning buyuk ajdodlarimiz haqida bildirgan ijobiy fikrlari, albatta, dilimizni faxr tuyg‘ulari bilan to‘ldiradi. Biroq, shu bilan birga, g‘arb adabiy kontekstlarida sharq solnomalari asosida yozilgan, ammo bizning nazdimizda noto‘g‘ri talqin qilingan ma‘lumotlar ham mavjud. Ularning real ijtimoiy-estetik bahosini berish maxsus ilmiy tadqiq va tahlilni talab etadi. Zero, o‘quvchi tafakkuriga ta’sir qilishga qaratilgan asarlar uning dunyoqarashi shakllanishida ham katta rol o‘ynaydi. Bu esa, albatta, o‘quvchining ongida buyuk ajdodimiz haqidagi haqiqatdan yiroq tasavvurlar uyg‘onishiga ham olib kelishi tabiiy hol.

Ma‘lumki, g‘arb adabiyotida Amir Temur olib borgan fothlik yurishlari natijalariga katta e’tibor qaratiladi. Bu yurishlar qurbonlari ko‘lamining kattaligi bilan yevropalik gumanistlarni lol qoldirib kelgan. Amir Temur mavzusiga qo‘l urgan har bir g‘arblik muallif Isfahon, Damashq, Bag‘dod, Dehli voqealariga to‘xtalmasdan o‘tmaydi. Masalan, Jastin Marotsi³⁸, Jan Pol Ru³⁹ kabi yozuvchilar bir ovozdan Dehli urushi oldidan yuz ming asirning qatl qilingani haqida bong urishgan. Yana boshqalar esa Isfahonda yetmish ming, Bag‘dodda esa to‘qson ming odamning qatl etilgani haqida yozishgan. Albatta, bu yozuvchilarning hammasi sharq manbalariga asoslangan. Biroq, bizning fikrimizcha, dalillarga munosabatda, ularni xolis tahlil etish masalasida bu ijodkorlar noto‘g‘ri yo‘ldan borishgan. Biz Dehli jangi oldidan asirlarning qatl qilingani to‘g‘risidagi ma‘lumotni rad etmoqchi emasmiz, biroq maqtullar soniga aniqlik kiritish Sohibqiron shaxsining ayrim qirralarini oydinlashishi shubhasizdir.

Yuqorida aytganimizdek, G‘arb sharqshunoslari Amir Temur masalasida Sharq manbalariga tayanib ish ko‘rishgan. Shunday ekan, e’tiborimizni Sharq

³⁸ Мароцци Жастин. Тамерлан. Завоеватель мира. – Москва: Полиграфиздат, 2010. – С.278.

³⁹ Ру Жан Поль. Тамерлан. – Москва: Молодая Гвардия, 2007. – С.289.

manbalariga qaratamiz. Xususan, bu haqda Nizomiddin Shomiy shunday ma'lumot beradi: "Sind daryosi labidan to bu manzilga yetguncha gabr kofirlari va butparastlaridan iborat yuz mingga yaqin hindu asir tushgan... Joriy bo'lgan hukmga binoan asirlarni qilichdan o'tkazib, qonini seldek oqizdilar.... Askarlarning har o'n nafaridan birini u yurtda qoldirdilar, ular u (o'ldirilgan) hindularning xotin-bolalarini muhofazat qilib turdilar."⁴⁰

